

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

BEKKULOVA ZULXUMOR NODIROVNA

**KAPETINGLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRIDA
FRANSIYA ICHKI VA TASHQI SIYOSATI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi: "Umumiy tarix"
kafedra mudiri
_____ dots. M.M.Hoshimova
" _____ " _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar:
_____ dots. M.M.Hoshimova

SAMARQAND 2015

Mundarija

| | |
|--|----|
| Kirish. | 2 |
| I BOB. X-XIV asrlarda Fransiyadagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahvol. | 6 |
| 1.1. Kapetinglar sulolasi qirollarining portretiga chizgilar. | 6 |
| 1.2. Qirol hokimiyatining kuchayishi borasida olib borilgan siyosat. | 25 |
| 1.3. Lyudovik IX islohotlari. | 33 |
| II BOB. Kapetinglar hukmronligi davrida Fransiya tashqi siyosati. | 47 |
| 2.1. Fransuz qirollarining sharqqa bo'lgan yurishlardagi ishtiroki. | 47 |
| 2.2. Rim papalari va fransuz qirollari munosabatlari. | 56 |
| 2.3. Mo'g'il xonlari bilan bo'lgan diplomatik aloqalar. | 61 |
| Xulosa. | 70 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. | 73 |

Kirish.

Mavzuni yoritish dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtboshimiz tomonidan tarixni o'rganish masalasiga katta e'tibor berildi. Shu nuqta'i nazardan O'zbekiston tarixini bilan bir qatorda jahon tarixini o'rganish ham keng yo'lga qo'yilib, jahon mamlakatlari o'tmishda bosib o'tgan tarixiy jarayonlari, baland-pastliklarini o'rganga holda xulosa chiqarishga imkoniyat yaratildi.

Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay kelajakni yaratib bo'lmaydi. Zero bugunning qadr qiymati, mohiyati va salmog'i kechagi kun tarozisi orqaligina to'liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarilmaguncha hech qanday jamiyat ilgarilab rivojlanmaydi.

Jahon xalqlarining tarixiy tajribalaridan foydalanish, ya'ni tarixda bo'lib o'tgan voqealardan, hodisalardan, turli shaxslar hayotidan, iqtisodiy taraqqiyotidan, yangi farovon jamiyat qurish yo'lida insonlarni fozil, komil kishilar qilib tarbiyalashda foydalanish va hozirgi davrga xizmat qildirish eng dolzarb vazifalardandir. Zero, "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz"¹.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tassavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi².

Shunday ekan, biz ham o'rta asrlarda Fransiyada hukmronlik qilganva o'ziga xos madaniy taraqqiyot yaratgan Kapetinglar hayotiga nazar tashlaymiz. Bu mavzu o'z mazmuniga ko'ra keng qamrovli bo'lib, kam o'rganilgan mavzulardan

¹Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent 1998. 4-bet.

²Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2008. 30-bet.

hisoblanadi. Chunki, Fransiyadavlatining hozirgi chegaralariga ega bo'lishiga, Kapetinglar davridan boshlab kirishilgan bo'lib, Kapetinglar sulolasi qirollari tomonidan mamlakatni birlashtirish borasida qattiq kurash olib borilgan.

XI, XII va XIII asrlarning ikkinchi yarmida Fransiyada ishlab chiqaruvchi kuchlarning juda tez rivojlanganligi kuzatildi. Dehqonchilik ancha o'sdi. Yerning bir qismi bir juft ho'kiz qo'shilgan g'ildiraksiz yengil plug bilan, boshqa bir qismi ikki yoki uch juft ho'kiz qo'shilgan og'ir plug bilan yaxshilab haydalar edi. Bug'doy, javdar, suli, arpa va boshqa boshoqli ekinlar hosili ko'payib, ekilgan urug'likka qaraganda besh va hatto olti hissa ortiq g'alla yigib olinadigan bo'ldi. Bog'dorchilik, polizchilik, uzumchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Shaharlarning o'sishi bilan ozuqa mahsulotlari - non, go'sht, yog', sabzavot va boshqalarga, shuningdek, turli qishloq xo'jalik xom-ashyosiga (jun, zig'ir, teri va hokazolarga) bo'lgan talab ko'paydi. Tovar munosabatlari fransuz qishlog'iga kira boshlab, uni mahalliy shaharlar bilan juda yaqindan bog'ladi. Parij o'sib borishi bilan u faqat o'ziga tutashgan okruglardagi qishloqlardagina emas, balki ancha uzoq okruglardagi qishloqlardan ham o'zini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashni talab qildi.

XI-XIII asrlarda Fransiya shaharlari katta yuksalish boshidan kechirdi. Janubdagi shaharlarning ko'pchiligi, shu jumladan, ko'pgina ko'hna Rimshaharlari, ancha katta sanoat markazlariga aylanibgina qolmay, balki ular Italiya va Yaqin Sharq (Levant) bilan ham qizg'in savdo-sotiq olib bordilar. Bular orasida Marsel, Tuluza, Monpelye, Narbonna alohida ajralib turardi. Ayni zamondashimolda va shimoli-sharqda Amyen, Suasson, Lan, Sanlis, Bove, Ruan, Reyms, Trua va boshqa ko'pgina shaharlar o'sib chiqdilar va sanoatning muhim markazlariga aylandilar. Bu shaharlarda movut va kanop gazlamalari yetishtirilardi, mo'yna ishlanardi, temir, qalayi, kumush, emal va boshqalardan turli metall buyumlar tayyorlanardi. Rivojlanayotgan shimoli-sharq savdo-sanoatining gavjumligi ko'p sonli yarmarkalarda namoyon bo'ldi. Shampaning turli shaharlarida - Truada, Provenda, Brida, Lan'ida va boshqa joylarda deyarli butun yil bo'yi savdo-sotiq qilinar edi. Umuman, savdo oborotlarining miqyosi va

tashqi savdoda ishtirok etish jihatidan Fransiyaning shimoli-sharqiy viloyatlari janubiy shaharlarga qaraganda hali orqada edilar. Ammo, ikkinchi tomondan shimoldagi hunarmandchilik ishlab chiqarishi janubdagiga nisbatan kamroq rivojlangan edi. Shimoli-sharqning savdo-sotiq munosabatlari qisman xalqaroayirboshlash (Germaniya, Niderlandiya, Shimoliy Italiya bilan savdo-sotiq qilish), qisman shimoli-sharqiy viloyatlar o'rtasidagi ichki ayirboshlash xarakteriga ega edi, shuning o'zi bilan Shimoli-Sharqiy Fransiyaning keng ichki bozoriga asos solindi. Ana shu ichki bozor zaminida kelajakda umumfransuz milliy bozori vujudga kelishi lozim edi. Parij ko'proq savdo va sanoat markazi ahamiyatiga molik bo'lib, bunga faqat shimoliy va shimoli-sharqiy viloyatlargina emas, balki shimoli-g'arbiy va g'arbiy rayonlar ham yaqinlasha boshladilar. Qirollik poytaxtining Sena, Marna va Luara singari buyuk daryo havzasida joylashganligi uni shakllanayotgan, milliy, iqtisodiy, til va madaniy aloqalarning tabiiy markaziga aylantirdi.

Shunday bir vaziyatda, tarix sahnasiga Kapetinglar sulolasi keldi. Birinchi Kapetinglar hokimiyati dastlab tamomila zaif edi. X va XI asrlarda Fransiya G'arbiy Yevropaning eng tarqoq monarxiyalaridan biri edi. Qirol bu yerda knyaz-feodallardan birining, hattoki kuchli bo'lmagan knyaz-feodalning oddiygina o'rnini egallardi. Ko'pgina qo'shni yirik feodallar, har qaysisi o'z holicha qirol dan kuchliroq edi va faqat feodallarning o'zaro raqibligi, cherkovning, keyinroq esa shaharlarning Kapetinglarni qo'llab-quvvatlashi, bu dinastiya vakillarining ustalik qilib, ohista siyosat yurgizishi birinchi paytlarda loqal o'z urug'ining qirollik unvonini qo'ldan chiqarmay, balki uni nasldan-naslga meros qilib qoldirish imkonini berdi. Qirol o'zining merosiy domenida - Il de Frans gertsogligida ozmi-ko'pmi xo'jayin edi. Bu nisbatan kambar mintaqa bo'lib, shimoldan janubga qarab cho'zilib ketgan va ammo ikkita kattagina shaharni - Parij bilan Orleanni o'z ichiga olgan edi, shu bilan birga, bu territoriyaga boshqa mulklar ham suqilib kirgan edi.

Qirol domeni territoriyasi Fransiyadagi ikki muhim daryoning, ya'ni Sena bilan Luara daryosining o'rta oqim bo'ylaridagi yerlarni o'z ichiga olsada, lekin

bu daryolarning mansablari, quyi va yuqori oqimlari bo'ylaridagi joylar boshqa feodallarga qarashli edi. Qirol domenini halqa qilib o'rab olgan eng yirik feodal knyazlik mulklari quyidagilar edi: shimolda - Flandriya grafligi, Normandiya gersogligi, Bretan gersogligi, g'arbda - Anju grafligi va Akvitaniya gersogligi, janubda - Overn grafligi va so'ngra Tuluza (Langedok) grafligi, sharqda -Shampan grafligi va Burgundiya gersogligi bor edi. Bu eng yirik gersoglik va grafliklardan tashqari, kichik miqyosda o'nlab boshqa mustaqil feodal yerlari ham bor edi. Hatto qirol o'ziga qarashli domenda ham mahalliy baronlarga qarshi qattiq kurash olib borardi. Qirol Parijdan Orleanga borganida uni ko'pdan-ko'p qurolli mulozimlar albatta kuzatib borishlari kerak edi. Hokimiyatni otadan o'g'ilga meros qilib qoldirish odatini saqlamoq uchun Kapetinglar X-XI asrlar davrida va hatto XII asrning birinchi yarmida ham qirol valiahdiga o'zi hayot vaqtidayoq toj kiygizish urf-odatini bajarar edi. "Qari qirol" yonida odatda, boshqa "yosh qirol" ham qirollikni boshqarar edi.

Ishning maqsadi. X-XIV asrlarda Fransiyada hukmronlik qilgan Kapetinglar sulolasi tarixini o'rganish, ular olib borgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga nazar tashlash, mavzuni yoritish mobaynida yangi-yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, jahon tarixiga qo'shgan hissalaridan xulosa chiqarish.

Ishning vazifasi. Kapetinglar tarixini yoritib berish, bu mavzu yuzasidan yangiliklarni o'rganish.

Mavzuni yoritishda erishilgan ilmiy yangiliklar. Bitiruv malakaviy ishni yoritishda Kapetinglar tarixiga doir qimmatli hamda qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Kapetinglarning Fransiya tarixida tutgan o'rni va kiritgan yangiliklari aniqlandi.

Mavzuni yoritishda foydalanilgan asosiy adabiyotlar. Bu mavzuni yoritishda M.M.Xashimovanning "O'rta asrlarda Fransiya", M.M.Xashimova, H.U.Gadayev, S.R.Usarovlarning "O'rta asrlar diplomatiyasi va xalqaro munosabatlar tarixi", Charl Pti-dyutayining "Феодалъная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках" kabi adabiyotlar va boshqa manbalardan foydalandik.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 75 bet hamda ilovalardan tashkil topgan.

I BOB. X-XIV asrlarda Fransiyadagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahvol.

1.1. Kapetinglar sulolasi qirollarining portretiga chizgilar.

Kapetinglar qirollik dinastiyasi asoschisi Gugo Kapet (fransuzcha *Hugues Capet*) 940 yil Durdon shahrida tug'ilib, 996 yil 24 oktabr Prasvil shahrida vafot etgan³. Gugo Kapet - 960-987 yillarda franklar gersogi, 987-996 yillarda Fransiya qiroli bo'lib, uning ota-onasi Robertinlar avlodi vakillari bo'lishgan. Ular Karolinglar va Fransiyaning boshqa aristokratik oilalari bilan IX-X asrlardan beri toj uchun kurashib kelgan. Karolinglardan bo'lgan Fransiya qirolchasi Beatrisa de Vermandua (922-923) ning nevarasi bo'lgan.

Kapet ismining ma'nosi XIII asrlarda yo'qolib ketgan. U Gugo kostyumining ma'lum narsasi, bosh kiyimidan kelib chiqqan degan ehtimol mavjud. Manbalarda turli formalari uchraydi: *Capito, Caputius, Capetus, Capatus*. XII asrlarda - *Huon Chaped*, fransuz eposida - *Huon Chapet* ko'rinishida keltirilgan.

Uning otasi Gugo Buyuk (897-956) 936 yil 25 iyuldan franklar gersogi, Neystriya markizi, 922 yildan Parij va Orlean gersogi, Qirol Robert I va Beatris de Vermandua o'gli hisoblanadi. Onasi esa Gedviga Saksonskaya (922-965) Germaniya qiroli Genrix I Ptistelov va Rim imperiyasi imperatori Otton I ning singlisi, Matilda Vestfalskayalarning qizi hisoblanadi.

Otasi o'lgandan keyin Gugo Kapetga Fransiya gersogligi hamda Parij va Orlean grafligi meros bo'lib qoldi. Bo'ysunmagan vassallar bilan kurashishda va Lotaringiyani egallashdagi yordami uchun qirol Lotar unga Puateni berdi. 986 yilda qirol Lotar o'ldi. U o'zining 19 yoshar o'g'li va toj vorisi Lyudovikni Gugo Kapet himoyasiga qoldirdi. Lyudovik V Dangasa 15 oylik hukmronlikdan so'ng befarzand bo'lib o'ldi. Uning davrida qirollik hokimiyati deyarli to'liq Gugo Kapetning qo'lida edi. Tojning qonuniy vorisi uning ukase Quyi Lotaringiya

³ http://www.wikipedia.ru/Hugo_Capet.

gersogi Karl edi. Lekin 987 yil liyunda Sanlida bo'lib o'tgan fransuz feodallari yig'ilishida qirol etib Gugoni saylashdi. Uni Reyn arxiyepiskopi Adalberon qo'llab quvvatladi. 987 yilning 3 iyulida Nuayonda toj kiydirish marosimi bo'lib o'tdi. X asrning oxiriga kelib, Fransiyada feodal tuzum tartibga keltirilgandi. Gugo Kapetga qirollik toji kuch olib kelmasdi. Chunki feodallarning nazarida qirollik tituli o'zining haqiqiy ma'nosini yo'qotgan, ular faqatgina o'zlarining ichida eng kuchlisini tanlab unga hokimiyatni emas, balki unvon topshirishdi. Kapetning tanlanishiga yana bir omil bu - Karl Buyuk imperiyasini yemirgan millatlar kurashiga yakun yasash, ya'ni german millatidagiqirollarni haydab, ularning o'rniga milliy, gallo-frank kelib chiqishiga ega qirollarga almashtirish bo'ldi. Chunki Robertinglar va Karolinglar kurashi mamlakat kelajagini xavf ostida qoldirardi. Shu bilan birga, bu tanlov Fransiya ichki ishlariga Germaniya aralashuvini oldini oldi. Feodallar ko'zida Kapetning saylanishi yangi dinastiya boshlanishini bildirmas edi. Gugo feodallarni ajdodlarining merosxo'rlari sifatida tan olib og'dirishga harakat qilardi. Lekin Luardan janubda joylashgan feodallar Karl tarafida edilar. Karl Lanni egallashga ham erishgan edi. Gugo normanlar va vassallar hujumidan himoyalanih maqsadida ko'p shaharlarning himoyasini kuchaytirdi. Oxirgi Karolinglar davrida poytaxt Lan bo'lgan bo'lsa, Gugo Kapet uni Parijga ko'chirdi.

Gugo Kapet 968 yilda Adelaida Akvitanskaya (945-1004), Puate grafi va Akvitaniya gersogi Giyom III Patlatov va Adel Normandskaya qiziga uylandi. Ularning 4 ta farzandi bo'lgan. Birinchisi, Gizela (969-1000) bo'lib, eri Gugo I (1000 yilda o'lgan), u senor d' Abbevil va Ponte grafi bo'lgan. Shuningdek, Gedviga (Edviga) (970-1013), Robert (972-1031) va Adelaida (973-1068) bo'lgan.

Gugo Kapetning uchinchi farzandi Robert II otasi o'limidan so'ng hokimiyat tepasiga chiqadi. U 972 yil 27 mart kuni Orleanda tug'ilgan bo'lib, 1031 yil 20iyulda Melyonda vafot etgan. 996-1031 yillarda Fransiya qirol bo'lgan⁴.

Unga otasi Gugo Kapetning o'zi toj kiydiradi. Gugo Kapet o'zining toj kiydirish marosimini o'tkazgandan so'ng, ko'p o'tmasdan Orleanda o'z o'g'liga

⁴ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.151.

ham toj kiydiradi va bu bilan mamlakatda ikkita qirol bo'ladi. Bunday qilishning sababi, Gugo Kapetning mavrlar ustiga hujum paytida o'lishi mumkinligi bo'ldi. Feodallar tomonidan saylangan Gugo Kapet qirollikni o'zining merosxo'riga qoldirishini istardi. Shuning uchun ham u o'g'li Robert II ga 987 yil Orleanda toj kiydiradi. Shuni ta'kidlash joizki, Gugo Kapetning o'limidan so'ng, 996 yilda hech qanday qayta saylov o'tkazilmadi va fransuz taxti uzoq vaqt Kapetinglarda qoldi.

Robertni mashhur Gerbert Orleanskiy tarbiya qilga bo'lib, u inson keyinchalik Papa Silvester II bo'ldi. U juda tirishqoq va iqtidorli edi. U harbiy ishlarda ham, diniy ishlarda ham o'zini ko'rsatardi. U kanonik fanlarni, san'atni ham o'rganardi. Episkoplar yig'ilishlarida cherkov masalalarini hal qilishda ham qatnashardi. Butun umri davomida u tinchliksevar inson bo'lib qoldi. Senni Deniabbatligida rohiblar birga kuylar, diniy kitoblarni mutolaa qilardi. U judayam oq ko'ngil edi, U nochorlarga muruvvat ko'rsatardi va boshqa jinoyatlarni kechirardi. U hattoki kiyimidagi oltin taqinchoqni o'g'irlagan o'g'rini ham jazosiz qoldirardi.

Robert II o'zining eng kuchli vassallari bilan yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'ygan edi. Ayniqsa, Normandiya gersogi Richard II Dobriy va Akvitanিয়া gersogi Gilom Velikiy bilan do'stona aloqalar o'rnatilgan edi. 1002 yilda Burgundiya gersogi o'zining amakisi Ed-Genrix o'limidan so'ng, Robert Burgundiyaning o'z qirollik tasarrufiga o'tkazmoqchi bo'ldi. Lekin Burgundiyaliklar buni eshitishni ham istamas edi. Bir necha yillar davomida, Robert Normandiya gersogi yordamida ularning mehrini qozonmoqchi bo'ldi. Ammo bunga erisholmagach, bu niyatdan voz kechdi. Burgundiya alohida gersoglik bo'lib qolib, 1016 yilda Robert uni o'g'li Genrix I ga topshirdi. Mamlakatning bir qancha joylarida qirol o'zining qattiqqo'lligiga qaramay ta'sirini yo'qotgan edi. Bular Shampani, Shartre, va Turelar bo'lib, bu yerlardagi graf Ed II de Bluani, qirolicha Bertaning birinchi eri Ed I de Bluadan bo'lgan o'g'li, qirol bo'ysundira olmadi. Xuddi shunday, Anjuy grafi Fulka III Heppu ham buysinishni istamas edi.

Robert II davrida birinchi bor 1022 yilda 10 ta erezlarlarni o'tda yoqib yuborish orqali qatl qildirildi. Orlean va Tuluzani egallagan eretik harakat rahbarlari ularni qutqarib qolishni cherkovdan yolvorib so'radi⁵.

Umrining oxirgi yillarida qirol o'g'illari bilan kelishmay qoldi. Buning asosiy sababi qirolicha Konstansiya bo'lib, u taxt o'zining kenja o'g'li Robertga qolishini istardi. Buning natijasida ikkita katta o'g'illari deyarli hech narsasiz qolishimomkin edi. Gugo Magnus, qirolning katta o'g'li, 1025 yil sentabr oyida ayni 17 yoshida olamdan o'tdi. Genrix esa otasi bilan yarashib, valiahd deb e'lon qilindi va 1027 yil 14 mayda Reymsda unga toj kiydirildi. Robert hayotida uch marta uylangan bo'lib, uning birinchi xotini 998 yilda Susanna (Rozaliya) Italienskaya (955-1003) ga uylangan. Bu ayol graf Arnulf II Flandrskiy bevasi, Italiya qiroli Berengar II Ivreyskiy qizi bo'lgan. Susanna eridan ancha katta bo'lgan. Robert u bilan 996 yilda ajrashgan. Undan bolalari bo'lmagan. Undan keyin esa 997 yilda ikkinchi xotini Berta Burundskaya (964-1010) bo'lgan. U Burgundiya qiroli Konard I Tixiyning qizi, graf Ed I de Bluaning bevasi edi. Ular faqatgina o'lik farzand ko'rishdi. Robert 1003 yilda graf Provansa Gilom I ning qizi Konstansiya Arlskayaga uylandi. Ularning bir necha bolalari bo'lgan. Birinchisi, Adviza (fransuzcha *Advisa*) grafinya Osera (1003-1063) Reno I, graf de Neverga turmushga chiqqan. Bu nikohdan tug'ilgan farzandlar Never va Oser grafliklarini meros qilib olishdi. Ikkinchisi, Gugo Magnus (1007-1025) Robert II bilan birga qirol bo'lgan. 1017 yil 9 iyun kuni unga ham toj kiydurilgan. Uchinchisi, Genrix I (1008-1060) Fransiya qiroli. To'rtinchisi, Adela, grafiniya de Kontenans, keyinchalik grafiniya de Flandrskaya (1009-1063). Birinchi marta Normandiya gersogi Richard III ga turmushga chiqib, ikkinchi marta Flandrya gersogi Bolduin V ga turmushga chiqqan. Katta ehtimol ila Adela Kapeting, Vilgelim Zavoevatel xotini, Matilda Flandrskayaning onasi bo'lgan. Beshinchisi, Robert I (1011-1076) 1032 yildan Burgundiya gersogi. Kapetinglarning birinchi Burgund Uyi asoschisi hisoblanib, 1032-1361 yillarda Burgundiya gersogligini boshqargan. Uning avlodlaridan biri Alfons I Zavoevatel (1109-1185) 1139 yilda

⁵ <http://www.wikipedia.ru/RobertII>.

Portugaliyaning birinchi qiroli bo'lgan. Portugaliyaning keying qirollari (Burgund va Aviss sulolalari vakillar, Brolansa Uyi) Mariya II (1819-1853) va Braziliyalik imperator Pedru II gacha bo'lgan hammasi Robert I ning to'g'ridan to'g'ri avlodlari hisoblanadi. Oltinchisi, Ed (1013-1056) Normandiyaga yurish vaqtida halok bo'lgan. Konstansiya (1014-noma'lum) graf de Dammarten, Manassiy (1000-1037) ga turmushga chiqqan. Adelaida (1014-1079) va Beatrisa (?-1072) ham uning qizlari bo'lishi mumkin.

Robert vafotidan so'ng, taxtga Genrix I o'tiradi. Genrix I (fransuzcha *Henri I*) 1008 yil 4 mayda Reymsda tug'ilgan bo'lib, 1060 yil 4 avgustda Orlean yaqinida vafot etgan⁶. Robert II va Konstantsiyaning o'g'li Genrix I 1031 yilda taxtga o'tirib, uni 1061 yilga qadar boshqargan. Genrix otasining tirikligidayoq, ya'ni 1016 yilda Burgundiya gersogi va 1027 yilda akasi Gugoning o'limidan so'ng, merosxo'r deb e'lon qilingan edi. Ammo otasining o'limidan so'ng taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Qirolicha Konstansiya taxtga kichik o'g'li Robertning o'tirishini xohlar edi va shu sababli Genrixga qarshi yirik feodallar bilan ittifoq tuzadi. Robertning ashaddiy tarafdorlaridan biri Shampan grafi Ed II de Blua bo'lgan. Dushmanlari tomonidan mag'lubiyatga uchratilgan Genrix Normandiya gersogi Robert Dyavol oldiga yordam so'rab boradi. Gersog qo'shin to'playdi va Parijgacha borib Genrix hokimiyatini tiklaydi. Ukasi Robert esa Burgundiya gersogligi evaziga taxtga bo'lgan da'vosidan vos kechdi. Qirollik taxtiga o'tirgan Genrixning hukmronligi unga to'be bo'lishni xohlamagan vassallariga qarshi urush bilan o'tdi. Uning davrida qirollik hokimiyati ancha zaiflashdi. Qirol Normandiya gersogi Vilgelmdan (kelajakda Angliya qiroli Vilgelm Fotix) 1054 yilda Mortsmere va 1058 yilda Varvill yonidagi janglarda mag'lubiyatga uchraydi.

Dastlab Genrix Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori Konrad II ning qizi Matilda bilan unashtirilgan edi. Lekin 1304 yilda kutilmaganda kelin vafot etadi. 1043 yili Friziya markgrafi qizi Matildaga uylanadi. Lekin bir yildan so'ng Genrixning bu xotini ham vafot etadi. 1051 yil 19 mayda Genrix Kiyef knyazi Yaroslav Vladimirovich Mudriyning qizi Annaga uylanadi. Ular to'rt farzand

⁶ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.151.

ko'rishadi: Filipp I (1052-1108) - Fransiya qiroli, Robert (1054-1063), Emma (1055-1109) va Gugo Velikiy (1057-1102) - graf Vermandua.

Genrix I dan keyin 1060-1108 yillarda Fransiyani Filipp I boshqaradi. Filipp I (fransuzcha *Philippe I^{er}*) 1052 yilda tug'ilib, 1108 yilning 29 iyulida vafot etadi⁷. Otasi vafot etgan vaqtda Filipp voyaga yetmagan edi. Uning onasi qirolicha Anna unga regent etib graf Bolduin V Flandrskiyini tayinlaydi va u qilollikni umrini oxiriga qadar, ya'ni 1067 yilga qadar boshqargan. Graf Bolduin vafot etgan paytda Filipp 15 yoshga ham to'lmagan edi. Filipp qo'shin boshida turib, 1071 yilda Flandriya ichki ishlariga aralashadi va Kassele yaqinida mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng, u boshqa yirik yurishlar amalga oshirmaydi.

U 1071 yilda Flandriya grafi Robertning qizi Berta bilan, 1092 yilda esa Monferrat grafi Simonning qizi Bertrada bilan nikoh qurgan. Filipp birinchi turmushidan beshta, ikkinchi turmushidan to'rtta farzand ko'radi. Lekin ikkinchi nikohi haqiqiy emas deb topilib, farzandlari ham noqonuniy deb e'lon qilinadi.

Kapetinglar sulolasi beshinchi vakili, Filipp I va Berta Gollandskayalarning o'g'li, qiroli Lyudovik VI Semiz (fransuzcha *Louis VI Le Gros, l'Eveille ou le Batailleur*) 1081 yil 1 dekabrda Parijda tug'ilib, 1137 yil 1 avgustda vafot etgan⁸. Lyudovik VI 1108-1137 yillar davomida Fransiya qiroli taxtida o'tirgan.

Adabiyotlarda Lyudovik VI Semizning dastlab 1104 yilda Lyusenna de Roshfor bilan nikohdan o'tgan va ularning Izabella (1105-1175) ismli qizibo'lgan degan taxmin mavjud. Undan keyin u graf Gumberta II Savoyskiy va Gizela Burgundskayalarning qizi Adelaida Savoyskaya (1100-?) bilan 1115 yil 28 martda Parijda turmush qurgan. Ularning to'qqizta farzandi bo'lgan. Ular: Filipp Molodoy (1116-1131) - 1129 yil 14 aprelda toj kiydirilgan va otasi bilan birga hukmronlik qilgan, lekin erta vafot etgan; Lyudovik VII (1120-1180) - 1137 yildan Fransiya qiroli; Genrix (1121-1175) - Bove epskopi (1149-1161), keyinchalik Reyms arxiepiskopi (1161-1175); Robert I Velikiy (1123-1188) - graf de Dryo, de Dryo "uyi" asoschisi. Uning nevaralaridan biri P'er (1191-1250) Bretan gersogligi

⁷ Xashimova M.M. O'rta asrlarda Fransiya. Toshkent 2014. 53-bet.

⁸ История Франции. Под ред. А.З.Манфред. Т. 1. М., 1972. с.278.

merosxo'riga uylanadi va 1213-1491 yillarda bu yerlarni ular boshqaradi. Uning oxiriga to'g'ridan to'g'ri avlodi gersoginya Anna Bretanskaya (1477-1514) 1491 yilda Fransiya qiroli Karl VII ga turmushga chiqadi va Bretan gersogligi (to'liq 1531 yilda) Fransiya qirolligiga qo'shib olinadi; P'er de Kurtene (1126-1183) Sen'yor de Kurtene, ikkinchi Kurtene "uyi" asoschisi Bu "uy" vakillari Salb yurishlari davrida mashhur bo'lishgan. Uning o'g'li P'er (Pyotr) 1217-1219 yillarda, nabiralari Robert 1221-1228 yillarda va Bolduin II 1237-1261 yillarda IV Salb yurishidan so'ng Vizantiya imperiyasi qoldiqlarida salbchilar tomonidantashkil qilingan Lotin (Konstantinopol) imperiyasini boshqarishgan; Konstansiya Fransuzkaya (1128-1180) - uning birinchi eri 1140 yildan Estash IV (Estash de Bluya) graf Blunskiy, ikkinchi eri 1154 yildan Raymund V graf Tuluzskiy; Pilipp (1132/33–1161) Parij episkopi; Qiz ham bo'lib, u chaqaloqlik paytida o'lgan.

Lyudovik VI Semizning katta o'g'li Filipp vafot etgach, merosxo'r Lyudovik VII bo'ldi va u taxtga o'tirdi. Lyudovik VII Molodoy (Yosh) (fransuzcha *Louis VII le Jeune*) 1120 yil tug'ilib, 18 sentabr 1180 yilda vafot etgan⁹. Lyudovik 1137 yilda Akvitaniya gersogi Vilgelimning qizi Alienora Akvitanskaya bilan turmush quradi. Ularning Mariya Fransuzkaya va Alisa Fransuzkaya ismli qizlari bo'lgan. 1137-1180 yillarda Fransiya qiroli bo'lgan. Lyudovikning ikkinchi xotini 1154 yilda Kastiliya qiroli Alfonso VII ning qizi Konstansiya Kastilskaya bo'lgan. Ularning Margarita Fransuzkaya va Adel (Elis) Fransuzkaya ismli qizlari bo'lgan. Faqatgina uchunchi Adelya Shampanskaya bilan nikohida Lyudovik VII ning uzoq kutilgan vorisi, bo'lajak Fransiya qiroli Flipp II Avgust tug'ildi. Uning otasi Shampani grafi Tibo II Buyuk bo'lgan. Lyudovik VII ning Adeldan Filipp II Avgust, Agnes Fransuzkaya kabi farzandlari bo'lgan.

Lyudovik VII dan keyin fransuz taxtiga Kapetinglar sulolasi yorqin vakillaridan biri, qirollik hokimiyatini sezilarli darajada kuchaytirgan Filipp II Avgust o'tiradi. Filipp II Avgust – Filipp Qiyshiq (fransuzcha *Philippe Auguste*) 1165 yil 21 avgustda tug'ilgan bo'lib, 1223 yil 14 iyulda Mant shahrida vafot etgan.

⁹ Xashimova M.M. O'rta asrlarda Fransiya. Toshkent 2014. 54-bet.

1180 yilda Fransiya qiroli etib saylandi. “Franklar qiroli” (*gex Francorum* yoki *Frankorum gex*) tituli o’rniga “Fransiya qiroli” (*gex Fransiae*) titulini ishlatgan birinchi qirol hisoblanadi¹⁰. Shu bilan birga, o’z vorisiga hokimiyatni o’lganidan so’ng topshirgan, ya’ni tirikligida vorisiga toj kiydirmagan birinchi Kapeting hisoblanadi.

1165 yilning 21avgustida Gones qal’asida Adel Lyudovik VII ga uzoq kutilgan vorisini tug’adi. Unga Filipp ismi berilib, *D ieudonne* (Xudo bergan) laqabi berilgan. O’g’liga toj kiydirishga Lyudovik unchalik shoshilmadi. Chunki uning akasi Filippga 12 yoshida toj kiydiriladi va ikki yarim yildan so’ng u otdan yiqilib o’ladi. Lekin cherkov qarorlarining ta’kidlashlari oqibatida Lyudovik Filippga toj kiydirishga qaror qiladi. Toj kiydirish marosimi 15 avgust 1179 yil kuni belgilandi. O’sha kunga bir necha kun qolganda yosh, o’n besh yoshli Filipp Kompyen o’rmonida ov paytida adashib yo’qolib qoladi. Faqatgina uch kun o’tgach, uni chalajon holatda topadilar. Filipp sog’lig’i uchun ibodat qilishga Lyudovik VII Angliyaga yo’l oladi. U yerda u o’zi Angliya qiroli taz’iqidanhimoya qilgan Muqaddas Tomas Beket qabriga borib ibodat qiladi. Filipp sog’ayib ketadi. Lekin Lyudovikning o’zi qaytganidan so’ng shol bo’lib qoladi. Toj kiydirish marosimi 1 noyabrga qoldirilib, onasi tomonidan amakisi Tibo IV ning to’rtinchi o’g’li Reysm arxiepiskopi Gilom tomonidan o’tkaziladi. Vassallar bilan birgalikda Genrix II Angliyskiyning katta o’g’li Genrix Mladshiy (Kichik) ham bu marosimda qatnashadi. O’sha paytda u Angliya qiroli, Normandiya gersogi va Anju va Men grafi unvonlariga ega edi. Filipp II Avgustning uchta xotini bo’lgan. Ulardan birinchisi 1180 yil 28 apreldan Flandriya grafi Boduin VIII ning qizi Izabella Artua bo’lgan. Filippning ikkinchi xotini 1193 yil 14 avgustdan Ingeborga Datskaya, Valdemar I ning qizi, Daniya qiroli Knut VI ning singlisi hisoblanadi. 1196 yilda esa Bertold III Meranskiyning qizi Agnessa Meranskayaga uylangan. Ularning uchta farzandi bo’lib, qizi Mariya, o’g’illari Filipp Yurpel va Jan-Tristan.

¹⁰ <http://www.wikipedia.ru/Filipp II Avgust>.

Filipp II Avgustning birinchi nikohidan bo'lgan katta o'g'li qirol Lyudovik VIII (fransuzcha *Louis VIII le Lion*) laqabi Sher 1187 yil 5 senyabrda tug'ilib, 1226 yil 8 noyabrda vafot etgan¹¹. 1223 yildan Fransiya qiroli. Saylanmasdan, meroslik huquqiga asosan taxtga o'tirgan birinchi Kapeting hisoblanadi. Taxt vorisi bo'lgan davrdan Lyudovik Angliya taxtiga egalik qilishni istardi. 1216 yilda Ioann Yersiz vassallari taklifiga ko'ra, Lyudovik ingliz tojini qabul qiladi va Kentga joylashadi. Angliyaning katta qismi unga bo'ysinardi. Lekin Ioannning o'limidan so'ng, Fransiyadan maslahatchi sifatida olib kelgan tarafdorlari tufayli fransuzlarga qarshi harakatlar boshlandi. Lyudovik taxtdan voz kechadi va toj kiydirilishini haqiqiy emas deb tan oladi. 1217 yilda u Fransiya qaytadi va Angliya bilan sulh tuzadi.

Fransiya tarixida yoqin iz qoldirgan Kapetinglar sulolasi vakili Lyudovik IX Muqaddas (fransuzcha *Louis IX, Saint Louis*) 1214 yil 25 aprelda Fransiyaning Puasse shahrida tug'ilgan. 1270 yil 25 avgustda Tunisda vafot etgan. U 1226-1270 yillarda Fransiya qiroli bo'lgan. Lyudovik VIII va Blanka Kastilskayalarning o'g'li. Kelishgan va chiroyli Lyudovik o'spirin paytida ritsarlikka juda qiziqardi. Natijada u 7-8 Salb yurishlariga yetakchilik qildi. 1234 yilda u graf Provanskiy Raymund V Berengariy (1205-1245) va Beatrisa Savoyskaya (1198-1266) larning qizi Margaritaga uylanadi.

Lyudovikning o'limidan so'ng, uning kanonizatsiyasi masalasi uning o'g'li tomondan ko'tarildi. U otasi qirol Lyudovik ilohiy shaxs deya e'tirof qildi va uni Fransiyaning ko'pchilik obro'li shaxslari qo'llab quvvatladi. 1297 yil avgust oyida oradan 27 yil o'tgach, Papa Bonifatsiy VIII o'zining "*Gloria lous*"¹² bullasida Lyudovik IXni iloh deb e'lon qiladi. Lyudovik IX Muqaddas Lyudovik Fransuzskiy nomi bilan kanonizatsiya qilindi. U fransuz qirollari ichida birinchi bo'lib ilohiy deb e'lon qilindi. Ungacha Dagoberta II ham ilohiylashtirilgan, lekin u paytda kononizatsiya jarayoni rasmiy emas edi. Muqaddas Lyudovik nomi Fransiya va uning tashqarisidagi ko'pgina katolik cherkovlari ataldi. Xususan,

¹¹ История Франции. Под ред. А.З. Манфред. Т. 1. М., 1972. с.284.

¹² http://www.wikipedia.ru/Gloria_lous.

Moskvadagi Muqaddas Lyudovik Fransuzskiy ibodatxonasi, shuningdek, qirolning taxminan o'lgan joyi, hozirgi Tunis shahri yaqinidagi Birsa tepaligidagi ibodatxonaga uning nomi berilgan.

Lyudovik IX Muqaddasxotini Margarita Pravanskaya bilan to'yi 1234 yil 27 may kuni Sans ibodatxonasida bo'lib o'tdi. U Provinsiya grafi Raymunda Berengera IV (1199-1266) va Beatrisi Savoyskoylarning qizi bo'lgan. Ularning o'n bitta farzandi bo'lgan. Ular: Blanka (1240-1243); Izabella (1242-1271) - uning eri Tibo II Navarra qiroli; Lyudovik (1244-1260); Filipp III (1245-1285); Jan (1247-1248); Jan Tristan (1250-1270) - Nevera grafi, 1269 yilda Iolanda Burgundskayaga uylangan; P'er (1251-1284); Blanka (1253-1323); Margarita (1254-1271); Robert de Klermon (1256-1317) – garf de Klermon uylangandan so'ng, u sen'or de Burbon bo'ldi va Fransiya, Ispaniya, Sitsiliyada hukmronlik qilgan Burbonlar sulolasi asoschisiga aylandi; Agnessa (1260-1325) - 1279 yilda Burgundiya gersogi Robert II ga turmushga chiqadi.

Lyudovik IX dan so'ng, taxtga uning o'g'li Filipp III keladi. Filipp III Dovyurak (fransuzcha *Philippe III*), laqabi Dovyurak (fransuzcha *le Hardi*) 1245 yil 30 aprelda Puassi qal'asida tug'ilgan¹³. 1285 yil 5 oktabrda Perpinyanda vafot etgan va San-Deni abbatligiga dafn etilgan. Karfagenda Lyudovik IX ning o'limidan so'ng, 1270 yil 25 avgustda Fransiya qiroli bo'ldi. Reyms soborida 1271 yil 15 avgustda toj kiydiriladi.

Filippga uning bobosi Filipp II Avgust sharafiga ism berilgan. 1260 yil katta akasi Lyudovikning o'limidan so'ng, u taxt vorisiga aylandi. Otasi bilan birgalikda uning oxirgi Salb yurishlarida qatnashdi. Afrika qirg'oqlaridagi lagerda qirol deb e'lon qilinadi. Fransiyaga qaytishi bilanoq u bir necha bo'ysunmas vassallarni bo'ysundiradi va Lion arxiepiskopi tomonidan uning hokimiyatining tan olinishiga erishadi.

Qirollikning dastlab yillari davlat ishlariga P'er dela Brosning katta ta'siribor edi. Uning kelib chiqishi pastroq tabaqadan bo'lib, u qirol huzurida kamerger bo'lib ishlardi. Lekin 1278 yilda u feodal tabaqalar mish–mishlari qurboni bo'ldi.

¹³<http://www.wikipedia.ru/Filipp III Smeliy>.

Ular Filippga qirolicha Mariya Brabantskaya orqali ta'sir o'tkazishardi. Brosning o'limidan so'ng, Sen-Deni ibodatxonasi abbati Mat'e de Vandom va seneshal Et'en Bomarshejar ko'tarilishdi. Ulardan tashqari bo'sh xarakterli Filippga uning amakisi Ikkala Sitsiliya qiroli Karl Anjuyskiy ta'sir o'tkazardi. Uning gaplariga kirib, Filipp German imperiyasi taxtiga da'vogar sifatida o'z nomzodini qo'yadi va omadsizlikka uchraydi. Karl sababli u ispan ishlariga aralashib qoladi va bu ishlar unga mag'lubiyat va o'lim olib keladi.

Filipp III ning ikki marta uylangan bo'lib, birinchi 1262 yilning 28 mayida Aragon qiroli Xayme I ning qizi Izabella Aragonskaya bilan turmush qurgan. Ularning Lyudovik, Filipp IV Chiroyli, Robert, Karlismli o'gillari vayoshligida o'lib ketgan ikki qizi bo'lgan. Uning ikkinchi xotini Barabant gersogi Genrix III ning qizi Mariya Barabantskaya bo'lgan. Ularning Lyudovik d'Evryo, Blanka va Margarita Fransuzskaya ismli farzandlari bo'lgan.

Ko'pchilik Kapetinglarda bo'lgani kabi uning qirolligi paytida fransuzlar hududlari kengaytirildi. U Janubiy Fransiyaning yarmini – Puatu, Sentonj, Tulon, Albijua, Overn, Kersi, Ajene, Ruerg, Vensenn hududlarini o'ziga qo'shib oladi. Bu yerlarning bir qismini Angliya va Papaga ham beradi. Janna Navarrskayaga uylanib, Filipp Fransiya Navarra, Shampan va Bri hududlarini qo'shib oladi. Undan tashqari Lion va Monpelelarni qo'shib olishga tayyorgarlik ko'rilgan bo'ladi.

Filipp IV Chiroylinining hukmronligi Fransiya monarxiyaning mustahkamlanishi va feodallarning siyosiy qudratining yemirilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. U otasi va bobosining ishini davom ettiradi. Biroq uning davri va sharoitlarining muhim xarakteri va xususiyati, uning atrofidagi maslahatchilari va yordamchilarining zo'ravonligi va shafqatsizligining kuchayishi bilan diqqatni tortadi. Filipp IV Chiroyli Fransiya papa hokimiyatini sezilarli darajada cheklash uchun harakat olib boradi¹⁴.

¹⁴ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.239.

Filipp IV Chiroyli (fransuzcha Philippe IV le Bel) 1268 yilda Fonteblyuda tugʻilib, 1314 yil 29 noyabrda shu yerda vafot etadi¹⁵. Filipp III va Izabellalarning farzandi boʻlib, u Fransiya qiroli boʻlish bilan birgalikda, Navarra qiroli, Shampani va Bri grafi ham hisoblanardi. Rim huquqlari anʼanasi ruhida tarbiyalangan Filipp IV Chiroylining maslahatchilari qirolning xohishi va talablari uchun doimo qonuniy asos topishga urinardi va muhim diplomatik bahslar sud jarayonalari koʻrinishida ifodalandi. Filipp IV Chiroylining butun boshqaruvi eng istiholasiz janjallar, “jarayonlar” va diplomatic sudlashuvlarga toʻla boʻldi. Masalan, ingliz qiroli Eduard I dan Giyena oʻlkasini tasdiqlatib olish uchun Filipp IV Chiroyli bir qator asossiz ayblar bilan uni sudga chaqiradi. Eduard I bu paytda Shotlandiya bilan urushayotgan edi. Eduard I Filipp IV Chiroyli bilan urush boshlanishidan qoʻrqib, Filippning oldiga elchi yuboradiva 40 kunga Giyenani egallashga ijozat beradi. Filipp IV Chiroyli gersoglikni egallaydi va uni tashlab ketishni xohlamadi. Boshlangan diplomatik muzokaralar harbiy harakatlar boshlanishiga olib keldi. Oxir-oqibat Filipp IV Chiroyli Giyenani qaytarib berdi. Shu shart bilanki, ingliz qiroli unga qasamyod qilib, unga vassal ekanligini tan olishi kerak edi. Bu voqealar 1295-1299 yillarda sodir boʻldi. Ingliz ittifoqchilari boʻlgan flamandlarning qirollik shimolida harakatga tushishi Angliyaga qarshi harbiy harakatlarga yakun yasadi.

Filipp IV Chiroyli oʻziga Flandriyaning shahar aholisini oʻz tomoniga ogʻdirishning uddasidan chiqadi. Flandriya grafi fransuz armiyasi hujumi oldida yolgʻiz qoldi va asirlikka tushdi. Flandriya esa Fransiya qoʻshib olindi. Shu 1301 yilda fransuz noibi Shatiyon va Filipp IV Chiroylining boshqa odamlaridan zulm koʻrgan flamandlar gʻalayon boshlashdi. Qoʻzgʻolon butun Flandriyani qamrab oldi. 1302 yil Kurtre yonidagi jangda fransuzlar yengildi. Soʻng, bu urush oʻzgaruvchan muvaffaqiyatlar bilan ikki yilga choʻzildi. Faqatgina 1305 yilda sulh tuzildi. Unga koʻra, flamandlar oʻz hududining katta qismini Filipp IV Chiroyliga berishga majbur boʻldilar. Qolgan yerlar vassalikni tan olishlari, 3 000 ta odamni qatl qilish uchun topshirishlari va qalʼalarni buzib tashlashlari zarur edi. Flandriya

¹⁵ Мусский И.А. 100 великих дипломатов. Москва. С.93.

bilan urushning cho'zilishiga Filippning bu yillarda Papa Bonifatsiy VIII bilan kurash olib borayotgani sabab bo'ldi.

Mamlakatni boshqarish va doimiy urushlar katta mablag'larni talab qilar edi. Bu borada mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, qirol Yevropada birinchi bo'lib xristian cherkovi yerlariga soliq solish to'g'risida qaror qabul qiladi. Filipp IV ning bu ishi Rim papasi bilan nizo kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu kurashda madadga ega bo'lish uchun esa 1302 yilda Fransiya qirolini birinchi marotaba General Shtatlarni chaqiradi. General Shtatlar dastlab 1302 yil 8 aprel kuni Parijning bosh ibodatxonasida ish boshlagan. Unda yuqori tabaqa vakillari bilan bir qatorda, har bir shahardan ikki nafardan vakil ham qatnashadi. Shaharliklar qirolni to'la qo'llab-quvvatlashlarini ma'lum qilganlar. Fransiyani birlashtirish uchun og'ir kurash olib borilayotgan bir sharoitda qirol shunga majbur bo'ladi. Filipp IV hokimiyatning bo'linishini xohlamas edi, albatta. Shu sababli uning o'ziga qolsa General Shtatlarini chaqirmagan bo'lardi. Unda uch toifa vakillari – dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklar qatnashdilar¹⁶.

Ruhoniylar birinchi toifa bo'lib, ibodat qilish, gunohlarni Xudo nazdida ajrim qilish, dvoryanlar toifasiga esa urush qilish, qirol va uning fuqarolarini dushmanlardan himoya qilish vazifalari yuklatilgan bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod etilgan edi. Uchinchi toifa aholining qolgan qismiga mansub bo'lib, unda badavlat shaharliklar asosiy o'rin tutardilar. General Shtatlar tuzilishi Fransiya davlatchiligida olg'a tashlangan muhim qadam bo'ldi. Sababi – uning timsolida qirolni aholining nufuzli toifalari bilan bog'lab turadigan yangi tashkilot paydo bo'lgandi. Yig'inda dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklar vakillari alohida majlis qilar edilar. Uzil-kesil qaror chiqarish zarurati bo'lgan paytlar ular birga yig'ilardilar. Lekin toifalar o'zaro murosaga erisha olmagan. Chunki dvoryanlar shaharliklar nufuzining o'sib borishidan qo'rqqar edilar. Ularni tobora boyib borayotgan shaharliklarning bir kuni hokimiyatga da'vo qilishi tashvishga solar edi. Natijada dvoryanlar shaharliklarni o'z qatoriga qo'shishni also istamaganlar. Shuning uchun ham shaharliklar qirol bilan kelishishni afzal bilganlar. Qirol

¹⁶ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.243

uchinchi toifaga tayanib, yirik dvoryanlarni yanada ko'proq cheklab qo'yishga erishgan. Shu tariqa Fransiyada toifaviy monarxiya qaror topgan. Dvoryanlar va shaharliklar o'rtasida ittifoqning qaror topmaganligi General Shtatlarning uch palatadan iborat bo'lganligida o'z ifodasini topdi. Palata vakillarining o'zaro kelisha olmaganligi General Shtatlarning qirolga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan hokimiyatga ega bo'lishiga imkon bermagan. General Shtatlar muntazam chaqirilmagan. Buning ustiga u qonunlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lmagan. Uning vazifasi u yoki bu soliqni joriy etishga rozilik berish bilan cheklanib qolgan. Qirol Filipp IV General Shtatlardan yangi soliq joriy etilishini do'stlarcha so'rash bilan birga, hukmdor sifatida ham talab qilardi.

Filipp IV Chiroyli o'zidan so'ng markazlashgan davlat qoldiradi. Filippning o'limidan so'ng dvoryanlar an'anaviy feodal huquqlari qaytarilishini talab qiladi. Feodallar chiqishlari bostirilgan bo'lsada, ular Kapetinglar sulolasining zaiflashuviga zamin yaratadi.

Filipp IV Chiroyli butun faoliyatining asosiy negizlarini bo'sh qirol xazinasini doimiy to'ldirib borishga urinish tashkil qilgan. Buning uchun, qirol bir necha marta General Shtatlarni va alohida vakillarni chaqirib turgan. Buning uchun, turli mansablar ijaraga sotilgan va shaharlar majburiy zayomlarga tortilgan. Tovarlariga katta soliq solingan. Zarb etilayotgan tangalarning vazni kamaytirilgan. Savdoda band bo'lmagan aholining katta qismi qashshoqlikda yashagan. 1306 yilda narxlarni oshirish to'grisidagi qaror qabul qilingandan so'ng, xalq qo'zg'olon ko'taradi va Filipp IV Chiroyli hatto Parijdan vaqtinchalik qochishga majbur bo'ladi. Feodal yer egalarining huquqlari chegaralangan. Bo'sh iqtisodiy siyosati uchun qirolni hamma yomon ko'rardi. Filipp IV Chiroylining Angliya, Germaniya, Savoyiva boshqa chegara hududlari borasida olib borgan jo'shqin tashqi siyosati uning asosiy yutug'i edi.

Filipp IV Chiroyli 1284 yil 16 avgustda Navarra qirolchasiva Shampagn grafinyasi Janna I ga (1272-1305) uylandi. Bu nikoh Shampanni Fransiyaga qo'shib olish imkonini berdi. Fransiya va Navarralarning birlashuviga asos solindi. Bu nikohdan Margarita (1288-1312), Lyudovik X (1289-1316), Blanka (1290-

1294), Filipp V (1291-1322), Izabella (1292-1358), Karl IV (1295-1328), Robert (1297-1308) ismli farzandlar tug'ildi.

Davlat markazlashuvi ta'minlab, dunyoviy hokimiyatning diniy hokimiyat ustidan hukmronligini o'rnatgan Filipp IV Chiroyli vafotidan so'ng, hokimiyat uning o'g'li Lyudovik X ga o'tdi¹⁷. Lyudovik X Svarliviy (fransuzcha *Louis X le Hutin* yoki *le Querelleur*) 1289 yil 4 oktabrda tug'ilib, 1316 yil 5 iyunda vafot etgan. 1314-1316 yillarda Fransiya qiroli bo'lgan. Onasi Ioanna Navarrskayadan unga Shampan va Navarra meros bo'lib qoladi. Loqayd, xaraktersiz hukmdor to'be hayotga o'rgangan bo'lib, otasining monarxiya hokimiyatini kuchaytirish borasidagi siyosatini davom ettira olmaydi. Barcha ishlarni uning amakisi Karl Valua boshqaradi. Filipp IV ning yordamchilari va maslahatchilari chetlashtirilishadi yoki sudlanadi. Lyudovik X feodallarni huquqlarini tiklashni, tangalarni Lyudovik IX davridagidek zarb qilishni, legistlar va qirollik hokimiyati ta'sirini kamaytirishniva'da beradi. Lekin Lyudovikka "Muqaddas Lyudovik davrining yaxshiliklari" ni ("*les bonnes coutumes de temps de Saint Louis*") tiklash qo'lidan kelmadi. Pulga muhtojlik tufayli Lyudovik X feodallarga qarshi bo'lgan shaharliklardan ko'mak izlashgamajbur edi. 1315 yilda Lyudovik X tomonidan e'lon qilingan mashhur ordonans (qaror) ning izohini faqatgina moliyaviy asoslash mumkin. Unda qirol o'zining hududlarida krepostnoylik huquqini bekor qiladi va "har bir fransuz ozod bo'lishi kerak" ("*au pays de Francs nulne do it etre serf*") degan g'oyani ilgari surib, boshqa senyorlarni ham shunday qilishga da'vat etadi¹⁸. Otasi tomonidan Flandriya bilan boshlangan urushni davom ettirib, Lyudovik Flandriya shaharlarini bosib olishni rejalashtiradi. Lekin u mag'lubiyatga uchraydi. Bu omadsiz qirolning barcha boshlagan ishlari omadsizlik bilan tugashi taqdiriga bitilgandek edi.

Lyudovik Burgundiya gersogi Robert II ning qizi malika Margarita Burgundskaya (1290-1315) ga uylangan edi. Malika Muqaddas Lyudovikning nevarasi, Lyudovik esa uning chevarasi hisoblanardi. Turmush o'rtog'iga xiyonat

¹⁷ http://www.wikipedia.ru/Lyudovik_X.

¹⁸ http://www.wikipedia.ru/Lyudovik_X.

qilishda ayblangan Margarita qirollik sudiga tortildi. Qaynotasi uni umrbod qamoq jazosiga mahkum qiladi. Katolik cherkov qoidalari bo'yicha Lyudovik X va Margarita o'rtasidagi nikohni bekor qilinishiga asos etarli emas edi. Shuning uchun, Lyudovik taxtga o'tirgan paytda ham qamoqdagi xotiniga bog'langan edi. 1315 yilda Shato-Gayar davlat qamoqxonasidagi Margarita Burgundskaya vafot etadi. Bu o'limni Lyudovik tomonidan amalga oshirilgani haqida mish-mishlar tarqalib ketadi. Shundan so'ng, qirol Neopolitan malikasi Klemensiya Vengerskayaga uylanadi. Birinchi turmushidan Janna ismli qiz qoladi. Qirolning o'limidan so'ng, ikkinchi turmushidan o'g'li Ioann I Posmertniy tug'iladi.

Lyudovik X, uning ukalari Filipp V Uzun va Karl IV (ularni "lan'atlangan qirollar" deb atashadi) lar ham o'zidan o'g'ilmerosxo'rqoldirmaydi. Bu oxir oqibat Kapetinglar sulolasi yakunigava taxtga Valua sulolasi kelishi hamda "Yuz yillik urush"ning boshlanishiga olib keladi.

Lyudovik X ning qizi Janna II (1312-1349) fransuz tojidan chetlashtiriladi. Lekin u Navarra qirolchasi va Shampani grafinyasi, buvisi Janna I ning merosxo'ri sifatida tan olinadi. Haqiqatda esa, Shampani grafligi kichik grafliklarga bo'lib yuborilgan bo'ladi. Navarra qirolchasi bo'lishga Janna faqatgina 1328 yilda erishadi. Jannaning Filipp d'Evryo (1306-1343) bilan nikohidan avlodlari 1441 yilgacha Navarra qirolligini boshqaradi. Bular Karl II Zloy 1349-1387 yillarda qirol bo'lgan, Karl III Blagorodniy 1387-1425 yillarda qirol bo'lgan va Blanka 1425-1441 yillar boshqargan.

Atigi besh kun umr ko'rgan Lyudovik X ning o'g'li Ioann I Posmertniy (fransuzcha *Jean I^{er} le Posthume*) 1316 yilning 15 noyabrida Parijda tug'ilib, shu yili 20 noyabr kuni vafot etgan. U otasining o'limidan bir necha oy o'tgach tug'iladi va shu zahoti qirol deb e'lon qilinadi. Lekin atigi 5 kundan so'ng, chaqaloq-qirol vafot etadi.

"Sali haqiqati" qonuniga ko'ra, Lyudovik X ning birinchi nikohidan bo'lgan Ioanna (Janna) Navarrskaya taxt vorisi bo'la olmas edi. Chaqaloq-qirol dan so'ng, taxtni qirollik regenti, Lyudovik X ning ukasi, Puate grafi, Filipp V Uzun egalladi.

Bu sulolaviy krisizga olib keldi. Chunki, Gugo Kapet davridan Kapetinglarda taxt qiyinchiliksiz otasidan katta o'g'ilga o'tib kelgan.

Xalq orasida jiyanini Filipp V ning o'zi o'ldirgan degan mish-mishlar ham mavjud. Boshqalar, chaqaloq Filipp V tomonidan almashtirib qo'yilgan deyishadi. Natijada, o'zini Ioann I Posmertniy degan bir qancha firibgarlar paydo bo'ladi. Ulardan biri Djannino di Guchcho Bal'oni 1350 yillarda Provansda paydo bo'ladiva o'sha yerda qamalib, o'lib ketgan.O'zining kuyovi va qizini Fransiya qirol va qirolichi sifatida ko'rishni istagan grafinya Matilda d'Artua (Mago d'Artua) chaqaloq-qirolni zaharlagan degan faraz ham mavjud. Lekin, ko'pchilik yangi fransuz tarixchilari Bal'onini haqiqatdan Ioann I Posmertniy deb hisoblashadi.

Rasmiy tarzda chaqaloq-qirol Sen-Deni abbatligida dafn qilingan. Buyuk fransuz revolyutsiyasi paytida qabr buzib tashlangan. Hozir u qayta tiklangan.

Filipp V Uzun (fransuzcha *Philippe V le Long*) 1291 yil 17 noyabr kuni Lionda tug'ilib, 1322 yil 3 yanvarda Parijda vafot etadi.1316 yildan Fransiya qirol, Filipp IV Chiroylining ikkinchi o'g'li¹⁹.

U taxtga o'tirganga qadar Puete grafi hisoblanardi. Akasi Lyudovik X Svarliviyning erta hayotdan ko'z yumganidan so'ng, Filipp Lyudovikning homilador xotini Klemensiya Vengerskaya va yangi tug'ilgan qirol Ioann I Posmertniy oldida o'zini qirollik regenti deb e'lon qildi. Shunda, Filipp "Sali haqiqati" qonuni qabul qilinishining asoschilaridan biri bo'ldi. Unga ko'ra, Fransiya toji ayol farzandga meros bo'lib qolishi ta'qiqlandi. Bu qadam bilan Filipp akasining katta qizi Jannani hamda Klemensiya yana qiz tug'sa, uni ham hokimiyatdan chetlatib, o'zi taxtga o'tirishni mo'ljallagan. Shu bilan birga, bu qonun orqali Jannaning avlodlari tojga da'vogarlik qila olmasdi va Filippning avlodlari taxtga egalik qilardi. Lekin qirolicha o'g'il tug'adi. U esa bor-yug'i besh kun yashaydi. Jiyanining o'limi Filippga qo'l keldi. Filipp V tomonidan General Shtatlar chaqiriladi. Ular avval Qirollik majlisi tomonidan qabul qilingan qarorni

¹⁹http://www.wikipedia.ru/Filipp_V_Dlinniy.

ma'qullashdi va ayollarni umuman taxt vorisi bo'lishini ta'qiqlab, Filipp V ni Fransiya qiroli sifatida tan olishdi.

Filipp V ning fransuz taxtiga o'tirishi "Sali haqiqati" qonunining amaldagi birinchi qo'llanilishi bo'ldi. Lekin Filipp bu qonunning oxir-oqibat hukmronlik qilayotgan Kapetinglar sulolasining yakuniga olib kelishi hamda "Yuz yillik urush"ga sabab bo'lishini tasavvur ham qilmasdi.

Filipp V taxtga o'tirishi bilan unga meros bo'lib qolgan Flandriya bilan urushni to'xtatdi. U davlat boshqaruvidan amakisi Karl, graf Valuani chetlatib, o'zini mamlakat ichki ishlariga bag'ishladi. U katta umidlar bo'glagandi. Filipp boshqaruv tizimida tartib yaratishga chin dildan harakat qilardi. U o'zining qisqa muddatli qirolligi davrida (o'zidan oldingi ko'p qirollarga nisbatan olganda) juda ko'plab ordonanslar e'lon qildi. Ular yordamida u ichki kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qildi. Filipp V ning qirollik davri butun Kapetinglar faoliyati sarhisobi sifatida ko'rish mumkin. Oldin qonunchilikka kiritilmagan narsalar reglamentatsiya qilindi. Filipp V turli ko'rinishlardagi yig'ilishlarni bir nechtasini tashkil qildi. General Shtatlardan ko'ra, Filipp shaharlar vakillari bilan maslahatlashishni yaxshi ko'rardi. Bu qiroli ham undan oldingilari kabi ikkita yirik islohatda omadsizlikka uchradi.

Filipp V 1307 yil yanvarda Janna de Shalon (Janna Burgundskaya) (1293-1330) ga uylangan. U praltsgraf Burgundskiy Otton IV de Shalon va Artua grafinyasi Matildalarning qizi bo'lgan. Filipp va Jannaning beshta farzandi: to'rt qiz va bir o'g'li bo'lgan. Birinchi qizi Janna II, grafinya Artua (1308-1347), ikkinchisi Margarita I, grafinya Artua (1310-1382), uchinchi qizi Izabella (1312-1348) dofin Vyennskiyga turmushga chiqqan. To'rtinchi qizi Blanka (1314-1358) Lonshan cherkoviga rohiba bo'lib ketadi. Beshinchi farzandi Lyudovik (1316-1317) chaqaloq paytida vafot etadi.

Filipp V Uzundan keyin taxtga o'tirgan Karl IV Chiroyli Filipp IV Chiroylining oxirgi, uchinchi o'g'li bo'lib, fransuz taxtidagi Kapetinglar sulolasi so'nggi vakili bo'ldi. Karl IV Chiroyli (fransuzcha *Charles IV le Bel*) 1294 yil 18

iyunda Klermonda tug'ilib, 1328 yil 1 fevralda Parijda vafot etgan²⁰. 1322-1328 yillarda Fransiya qiroli bo'lgan Karl IV Chiroyli irodasiz va qat'iyatsiz odam bo'lgan. U aql-idrok bilan ham unchalik ajralib turmas edi. Uning qirollik davrida mamlakatni uning amakisi Karl Valua boshqaradi. Karl IV Chiroyli mamlakat ichida qirollik hokimiyatini kuchaytirishga harakat qildi. Flandriya grafiga uning qo'zg'olonchilari bilan kurashida yordam berdi. Singlisi Izabellaga, Angliya qirolichasiga eri qirol Eduard II bilan kurashida yordam berdi. Eduard II mag'lubiyatga uchratilib, o'ldirildi. Bu yordami uchun Izabella 1327 yilda Karlga Ajenua hududini berdi va 50 000 marka sterling to'ladi.

Karlning birinchi nikohi Blanka Burgundskaya bilan bo'lib, ular yoshligidayoq vafot etgan ikki farzand ko'rishdi. 1314 yili janjal boshlanib, uning natijasida Blanka va uning amakivachchasi Margarita Burgundskayalarning xiyonati haqidagi faktlar kelib chiqdi. Malikalar Shato-Gayar qal'asiga umrbod qamoq jazosiga mahkum qilindi. Karl uchun bu og'ir zarba bo'ldi. Birinchi xotini bilan ajralgach, u o'zi nemis taxtiga kurashda yordam berayotgan Ioagann Lyuksemburgskiyning singlisi Mariya Lyuksemburgskayaga uylandi. Uchinchi marta Karl Janna d'Evryoga uylandi va ular uch qiz farzand ko'rishdi. Ularning ikkitasi yoshligidayoq vafot etishdi. O'g'il farzand ko'rmagach, Karl General Shtatlarga taxtni kimga topshirish masalasini hal qilib berishi kerak edi. Amakivachchasi, Filipp Valuaga yoki jiyani Eduard III Angliyskiyga taxtni topshirish yechilmay turgan masala edi.

Karl o'lgan paytda Janna d'Evryo homilador edi. Shuning uchun Filipp Valua chaqaloq tug'ilganga qadar o'zini regent deb e'lon qiladi. Agar o'g'il tug'ilganda, taxtga u o'tirardi. Lekin Karl IV ning bevasi qiz tug'di. Karlning etti farzandidan faqatgina shu qizi katta yoshgacha umr ko'rdi. Natijada graf Valua o'sha kuni qirol Filipp VI deb e'lon qilindiva Valua sulolasi hukmronligi boshlandi. Angliya qiroli Eduard III ham onasi tomondan merosxo'rlik huquqini talab qilgan holda fransuz taxtiga da'vogarlik qiladi. Bu esa ikki davlat o'rtasida "Yuz yillik urush" boshlanishiga sabab bo'ladi.

²⁰<http://www.wikipedia.ru/Karl IV Krasiviy>.

1.2. Qirol hokimiyatining kuchayishi borasida olib borilgan siyosat.

XII asrning birinchi yarmidagina, ya'ni Lyudovik VI va Lyudovik VII hukmronlik qilgan davrda qirol hokimiyati bir qadar yuksala boshladi.

Qirol hokimiyati kuchayishi XII asrdan boshlandi. Faqatgina Lyudovik VI Semizning 30 yillik hukmronligi davrida vassallar boshboshdoqliklari bo'ysundirildi va qirollik hokimiyati mustaxkamlanadi. Dastlab, Lyudovik VI davrida qirol yerlaridagi o'zboshimcha senyorlar bo'ysundirildi. Keyingiqirol davrida esa Burj va Sans shaharlari qirol yerlariga qo'shib olindi. Lyudovik VI Fransiya tarixidagi ishbilarmon va jo'shqin faoliyat olib borgan bir qator qirollarning birinchisi hisoblanadi. U otasidan meros qilib olgan baland bo'yi va to'liqligi natijasida unga "Semiz" laqabi berilgan. Lyudovik VI tahsil olgan ibodatxonada u Suguriy bilan yaqinlashdi va bir umrga do'st bo'ldi. Ibodatxonadagi hayot unga qirol huquqlari va majburiyatlari haqidagi bilimlarni egallashda katta ahamiyat kasb etdi. Taxtga o'tirgach, u qirollik huquqi, cherkov va ijtimoiy tartibni saqlash va himoyalash maqsadida vassallar bilan qattiq kurashdi. U qirollikda tartib va adolat o'rnatishga intildi. Cherkov manfaatlarini himoyalash uchun Lyudovik baron Busharad Monmoransini jazoladi hamda baron bilan Sen-Deni abbatligi o'rtasidagi janjalga nuqta qo'ydi. Boshqa badavlat va qudratli baron Ebl de Rusi Reyms eparxiyasini talon-taroj qiladi. Reyms

arxiepiskopi Lyudovikka yordam so'rab murojaat qiladi. Lyudovik de Rusiningmulklariga ayovsiz hujum qiladi²¹.

Feodallar tomonidan ezilgan quyi tabaqalar, ular shaharliklar, mayda va o'rta feodallarLyudovikka hayrixohlik bildirardi va qirol o'zining kuchi yetmaganda har zamonda ularga tayanardi. Gugo de Pyuizeibodatxona va cherkovlarni tunashni boshlaganda, Lyudovik uning qal'asini qamal qildi. Lekin u qal'ani faqatgina ruhoniylar boshchiligidagi oddiy xalq qo'shilgandagina oldi. Lyudovikning shaharlarga bo'lgan siyosati unchalik aniq bo'lmasada, u feodallar bilan kurashda shahar kuchining ahamiyatini yaxshi anglar edi.

Lyudovik VI o'z hokimiyatini kuchaytirish va qirollik hududlarini kengaytirishga nafaqat bosqin va kuch bilan, balki o'zaro nikoh bilan ham erishadi. U o'g'li Lyudovik VII ni Akvitaniya gersogi Giyom X ning qizi va merosxo'ri Aleonora Akvitanskayaga uylantiradi. Lyudovik VI ning tashabbusi bilan uyushtirilgan bu nikoh Luar daryosi ikki tomonidagi yerlarni Fransiyaga qo'shib olinishiga olib keldi.

Taxtga o'tirgach Lyudovik VII ham ko'p sohalarda otasi yuritgan siyosatni olib bordi. U dastlab tashkilotlarni berishni so'ragan Orlean fuqorolarini qatl qilishdan boshladi. Otasi singari Lyudovik VII ham feodallar bilan kurashishga to'g'ri keldi va u har zamonda shahar aholisi bilan ittifoq tuzdi.

Lyudovik VII Ikkinchi Salib yurishida qatnashadi, lekin bu yurish unga kam foyda keltirdi. Ammo qirol yo'q vaqtda mamlakatni idora qilib turgan abbat Sugeriy ham mahalliy baronlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashni davom ettirdi. Shaharlarning feodallarga qarshi olib borgan kurashlarda Sugeriy ham bu shaharlarni zo'r berib qo'llab-quvvatladi. Nihoyat, savdo bojlari ko'payib borganligi tufayli, shuningdek, qirol yer-mulklaridan keladigan daromadlarning ortib borishi natijasida o'sib borgan qirollik moliya ishlarini g'oyat zo'r qobiliyat egasi bo'lgan Sugeriy tartibga tushirdi.

Lyudovik VII Salib yurishlaridan qaytgach, 1152 yilda Aleonora bilan nikohni bekor qilishga erishadi. Natijada Aleonoraga Akvitaniya, Puatu, Gaskon

²¹<http://www.wikipedia.ru/Lyudovik VI>.

yerlari qaytariladi. Aleonora ajrashgandan so'ng, graf Anjuyskiy bo'lgan Genrix Plantagenetga turmushga chiqadi. Keyinchalik u Genrix II nomi bilan Angliya qiroli bo'ladi. U fransuz qiroliga vassal hisoblansada, deyarli ga'rbiy Fransiya yerlariga egalik qilib, Lyudovik VII dan anchagina qudratli edi²². Bu vaziyat ikki davlat o'rtasidagi urushni keltirib chiqardi. Urush 1160 yil boshlanib, tanaffuslar bilan Lyudovikning o'limiga qadar davom etadi. Urushda fransuzlar g'alaba qozonmasada, fransuz yerlarining Angliya tomonidan egallanishiga yo'l qo'yilmadi. Inglizlar bilan bo'lgan janglardagi qator g'alabalar uning o'g'li Filipp II Avgust nomi bilan bog'liq.

Otasining umrining oxirgi oylarida Filipp II Avgustning onasi tomonidan amakilari ta'siri oshib borardi. Lekin 15 yoshli o'smir o'zini mustaqil nuqtai nazarini ko'rsata oldi. Lyudovik VII umrining oxirgi yillarida unga graf Flandrskiyyaqin bo'lib qoladi. Graf Filippning ritsarlik tarbiyasini nazorat qilib boradi. Uning maslahatiga ko'ra, graf Flandrskiyning kuchayib ketishidan qo'rqqan onasining qarshiligiga qaramay, Filipp grafning jiyani Izabella de Enoga uylanadi. Graf Izabellaga to'y tuhfasida katta yerni taqdim qiladi. Natijada bu yerlar Artua grafligiga aylandi. Lekin, graf Flandrskiy nikoh shartnomasiga bu yerlardan foydalanish huquqi o'limigacha o'zida qolishi haqidagi moddani kiritib qo'yadi. Bu grafning Filipp II bilan kelishmovchiligiga olib keladi. Lyudovik VII o'limidan so'ng, Filipp va ustozlari o'rtasidagi munosabat buziladi.

Filipp oddiy Kapeting edi. Lyudovik VI ni inobatga olmaganda, Filippdan oldingilar va keyingilar siyosatida boshqa yerlarni o'zlashtirish asosiy masala bo'lgan. Filipp o'zining noqulay joylashganligini, ya'ni har tarafdin qudratli baronlar bilan chegaradoshligi qirollikning taqdirini shubha ostida qoldirishini yaxshi anglar edi. Xususan, Angliya qiroli yerlari Filipp yerlaridan uch barobar katta edi. Boshqa baronlar ichida eng qudratlisi Flandriya grafi edi.

Filipp II o'z hududlarini kengaytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu uchun u har qanday kichik bo'lsa ham imkoniyatni ishga solardi. Uning tashqi siyosati- o'z hududlarini kengaytirish, ichki siyosati- egallagan yerlarini

²² История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.153.

mustahkamlab borishga qaratilgan edi. Filipp ikkala masalani ham yengil hal qilardi. Uning talantli qo'mondon, iqtidorli diplomat, huquqshunos va tashkilotchilik xislatlari yuzaga chiqdi. Filipp Flandriya grafi bilan kelisholmaganiga yana bir sabab graf qirollikda asosiy boshqaruvchi rolini egallashni istardi. Bu niyatlariga erisholmagan graf darhol Parijni tark etdi va Gennegay, Namyura, Blua, Sanserra, Shampani graflari va gersog Burgundyskiylar bilan birgalikda koalitsiya tuzadi. Filipp bu koalitsiyaga Angliya qiroli Genrix II qo'shilmasligiga qiyinchilik bilan erishadi. Filipp II Avgust Rim Papasiga ko'mak so'rab murojaat qildi va Genrix II uning Yevropa kontinentidagi yerlarini boshqarayotgan o'g'illarini o'z tomoniga o'g'diradi. Ularning yordami bilan u dushmanlarini yengdi. Gugo Kapet davridan bu qirollikhokimiyatining baronlar ustidan erishgan eng yirik g'alabasi bo'ldi²³.

1186 yildagi Flandriya bilan tuzilgan tinchlik sulhiga ko'ra, Filipp A'yen va Vermandua grafliklari, Sen-Kantena va Peronnadan tashqari yerlarini o'z hududlariga qo'shib oldi. Shundan keyingina Filipp Angliyaga qarshi harakat qilishi mumkin edi. Filippga Genrixning o'g'illari bilan janjallarini qo'l keldi va Filipp bujanjalni qo'llab turardi. Bu bilan u Angliyani kuchsizlantirishga harakat qilardi. Genrixning katta o'gli Richard Sheryurak otasiga qarshi chiqib, Fransiyadan panoh topdi. Filipp Genrix II ni qo'zg'olonchi feodal sifatida fransuz yerlaridan mahrum qilib, ushbu hududlarni og'li Richardga topshirdi. Richard esa unga to'belik qasamyodini keltirdi. Ko'plab baronlar uning tarafiga o'tdi. 1189yil yozda La-Mansh, Tur va Somyur fransuzlar tomonidan egallandi. Genrix esa Shinonga kelib tinchlik sulhini tuzishga majbur bo'ladi. U Filippni o'z syuzereni (sen'ori) deb tan olib, qaytarib berilgan yer evaziga 20 000 marka to'lashga va'da bergan. Genrix II ning o'limidan so'ng Filipp uning vorisi Richard I bilan aloqalarni mustahkamladi va u bilan 1190 yilda Uchinchi Salb yurishiga otlandi. Lekin ularning ittifoqi uzoqqa cho'zilmadi. Suriyaga yetib kelishlaridan oldin munosabatlar taranglashgan edi. Filipp II Avgust o'zining ittifoqdoshi bilan unchalik kelishmas edi. Richardning jahli chiqsa ham, lekin kuch ishlatishga hech

²³[http://www.wikipedia.ru/Filipp II Avgust.](http://www.wikipedia.ru/Filipp%20II%20Avgust)

kim botina olmasdi. Sen-Jan-d'Akr (Akra) ishg'ol qilingandan so'ng, Filipp Fransiyaga qaytadi. Filipp Richardga uning yerlariga hujum qilmaslikni va'da beradi. Filipp Angliya yerlariga hujum qilmasada, otasi yo'qligi paytida o'rniga qirollikni boshqarib turgan Ioann Yersiz bilan sirli muzokaralar olib borardi. Buni eshitgan Richard uyga qaytishga oshiqadi. Lekin yo'lda u dushmani Leopold Avstriyskiy qo'liga tushadi. Richardning yo'qligidan Filipp unumli foydalanishgaharakat qildi. U hattoki Normandiyadan Veksenni tortib oldi. Richard asirlikdan qaytgach, aytarli muhim hodisa ro'y bermaydi.

Richardning o'g'li Arturning sirli o'limidan foydalanib, Filipp II Avgust Angliya yangi qiroli Ioann Yersizni sudga chaqiradi. U kelmagach, vassallik qasamyodini buzganlikda uni ayblaydi va Normandiya, Anju, Turen, Men va Puatu (1202-1206 yillarda) larni bosib oladi. Ioann Filippga qarshi koalitsiya tuzadi. Unga Fransiya kuchayishidan xavotir olgan german imperatori Otton IV, Flandriya va Buloni graflari qo'shiladi. Filipp mashhur Buvina yaqinidagi jangda koalitsiya qo'shinlarini tor-mor keltiradi²⁴.

Fransiyaning hududiy kengayishi Filipp II Avgust faoliyatining muhim yutuqlaridan biri hisoblansa, tashkillashtirilgan ma'muriy tuzim yaratib, qirollik hokimiyatining kuchaytirilishi ikkinchi yutug'i hisoblanadi.

Filipp II Avgust o'zining hokimiyatini mustahkamlash uchun hech narsaniayamas edi. U Papa bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga harakat qilardi, lekin undan hech qo'rqmas edi. Filipp ikkinchi xotini Ingeborta Datskayani qo'yib, Agnessa Meranskayaga uylanganida Papa Innokentiy III Filippga interdikt qo'yadi. Lekin bu holat hech qanday ahamiyatsiz qolib ketadi. Innokentiy III biror muhim siyosiy vaziyatga aralashishga harakat qilganida, Filipp unga yumshoqqina qilib javobini berardi.

Filippning asosiy siyosiy quroli kommunalar edi. Undan oldingi ikki qirollikkomuna harakatlarining qirollik hokimiyati uchun qanchalik muhimligini yaxshi anglamas edilar. Ular kommunalar bilan faqatgina foydalanish maqsadida munosabatga kirishardi. Filipp kommunalar qirolning muhim ittifoqdoshi

²⁴ История Франции. Под ред. А.З. Манфред. Т. 1. М., 1972. с.288.

ekanligini tushundi. Chunki ularning dushmani bitta bu - baronlar. Shuning uchun, u ularning harakatlarini qo'llab quvvatlardi. O'z mulklarida shaharlarga siyosiy erkinlikberishdan hayiqardi. Filipp tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy islohatlarning asosi bo'lib, xususiy xo'jalik tuzimidan davlat tizimiga aylantirilishi bo'ldi. Eski lavozimlar seneshal, konnetabla, marshal, kamerariy, chashnik kabilar bir qismi o'z ahamiyatini yo'qotdi. Filipp markaziy organ- qirollik kuriasini tashkil qiladi. Provinsiyalarda o'z qo'lida sud, ma'muriy-xo'jalik faoliyati vazifalari bo'lgan qirol odamlari- prevolar tayinlandi. Prevolar shaharlarda, qishloqlarda faoliyat yuritardi. Aholisi nisbatan ko'proq bo'lgan hududlarga bal'ilar ishga olindi. Barcha lavozimlarning meros bo'lib qolishi bekor qilindi. Barcha lavozimlarga tayinlash va almashtirish qirolga bog'liq edi. Parijda viloyatlar ma'muriyatlarining moliyaviy faoliyatining birlashtiruvchi hisob palatasi tashkil qilindi²⁵.

1223-1226 yillarda mamlakatni boshqargan Lyudovik VIII ham otasi bilan birgalikda qirol hokimiyatini kuchaytirishga hissa qo'shdi. Bulg'usi merosxo'r Lyudovik VIII otasi hayotligidayoq o'zini tarjibali qo'mondon sifatida ko'rsata olgan. U 1214yilda ingliz qirolu Ioanni bir necha bor mag'lubiyatga uchratdi va uni La-Roshelga chekinishga majbur qilar ekan, uning german imperatori Otton IV bilan birlashishga yo'l qo'ymaydi. Natijada uning otasi Buvin yonida jangda g'alaba qozonishga mufaqqat bo'lgan. Bu g'alabadan so'ng, Lyudovik VIII ingliz baronlari bilan kelishgan holda Angliya yurishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. 1216yilda Temza daryosi yonidagi Tanet oroliga qo'shinini tushirib, u yerdan Kentga boradi va Kenterberi, Rochesterni egallaydi. Iyul oyida esa xalq olqishlari ostida Londonga kirib keladi. U fuqorolarga ularning eski qonunlariga rioya qilgan holda Ioann tomonidan tortib olingan mol-mulklarni qaytarishni va'da qilgandan so'ng, ular Lyudovikka vassallik haqida qasamyod qilgan. Ko'plab ingliz ritsarlari ham fransuzlar tomoniga o'tib ketadi. Ioannga yordam bergan Papa Innokentiy III ning fransuz qirolini cherkovdan chetlashtirishi hech qanday natija olib kelmaydi, chunki ko'blab ingliz episkoplari ham Lyudovik tomonida edi. Lyudovik Luvrni

²⁵ История Франции. Под ред. А.З. Манфред. Т. 1. М., 1972. с.288.

qamal qiladi. Ammo, oktabr oyida Ioanning o'limifransuz qirolining rejalarini barbod qiladi. Ingliz baronlari Ioanning o'gli Genrix III atrofida birlashdi. 1217yilda Linkoln yonidagi jangda Lyudovik VIII tarafida bo'lgan inglizlarmag'lub bo'ladi. Avgust oyida ingliz eskadrasini Temza qirg'oqlarida fransuz flotini mag'lub etadi. Lyudovik urush davom ettirish befoyda ekanligini tushunib, sentabr oyida Genrix bilan tinchlik sulhini imzolaydi va Fransiya qaytib ketadi.

Fransiya qiroli etib saylangan Lyudovik VIII 1224 yilda inglizlarga qarshi yana urush boshlaydi va ulardan Laura va Garonna o'rtasiga yerlarni tortib olishga harakat qiladi. Lyudovik Nior, Sen-Jan d'Anjeli, La-Roshel va nihoyat Puatuni to'liq egallaydi. Bu davrga kelib Fransiya Yevropadagi eng kuchli davlatlardan biriga aylangan edi.

Filipp IV Chiroyli hukmronlik davrida Fransiyada markazlashish jarayoni yanada kuchaydi. U birinchi marotaba 1302yilda Fransiyada General shtatlarni chaqirdi. 8 aprel kuni Parijning bosh ibodatxonasida ish boshlagan. Unda yuqori tabaqa vakillari bilan bir qatorda, shahardan ikki nafardan vakil ham qatnashdi. Shaharliklar qirolni to'la qo'llab-quvvatlashlarini ma'lum qilganlar. Fransiyani birlashtirish uchun og'ir kurash olib borilayotgan bir sharoitda qirol shunga majbur bo'ladi. Filipp IV hokimiyatning bo'linishini xohlamas edi, albatta. Shu sababli uning o'ziga qolsa General shtatlarini chaqirmagan bo'lardi. Unda uch toifa vakillari – dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklar qatnashdilar²⁶.

Ruhoniylar birinchi toifa bo'lib, ibodat qilish, gunohlarni Xudo nazdida ajrim qilish, dvoryanlar toifasiga esa urush qilish, qirol va uning fuqarolarini dushmanlardan himoya qilish vazifalari yuklatilgan bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod etilgan edi. Uchinchi toifa aholining qolgan qismiga mansub bo'lib, unda badavlat shaharliklar asosiy o'rin tutardilar. General Shtatlar tuzilishi Fransiya davlatchiligida olg'a tashlangan muhim qadam bo'ldi. Sababi – uning timsolida qirolni aholining nufuzli toifalari bilan bog'lab turadigan yangi tashkilot paydo bo'lgandi. Yig'inda dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklar vakillari alohida majlis

²⁶ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.243.

qilar edilar. Uzil-kesil qaror chiqarish zarurati bo'lgan paytlar ular birga yig'ilardilar. Lekin toifalar o'zaro murosaga erisha olmagan. Chunki dvoryanlar shaharliklar nufuzining o'sib borishidan qo'rqqar edilar. Ularni tobora boyib borayotgan shaharliklarning bir kuni hokimiyatga da'vo qilishi tashvishga solar edi. Natijada dvoryanlar shaharliklarni o'z qatoriga qo'shishni also istamaganlar. Shuning uchun ham shaharliklar qirol bilan kelishishni afzal bilganlar. Qirol uchinchi toifaga tayanib, yirik dvoryanlarni yanada ko'proq cheklab qo'yishga erishgan. Shu tariqa Fransiyada toifaviy monarxiya qaror topgan. Dvoryanlar va shaharliklar o'rtasida ittifoqning qaror topmaganligi General Shtatlarning uch palatadan iborat bo'lganligida o'z ifodasini topdi. Palata vakillarining o'zaro kelisha olmaganligi General Shtatlarning qirolga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan hokimiyatga ega bo'lishiga imkon bermagan. General Shtatlar muntazam chaqirilmagan. Buning ustiga u qonunlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lmagan. Uning vazifasi u yoki bu soliqni joriy etishga rozilik berish bilan cheklanib qolgan. Qirol Filipp IV General Shtatlardan yangi soliq joriy etilishini do'stlarcha so'rash bilan birga, hukmdor sifatida ham talab qilardi.

Fransiyada XIV asr boshlarida toifaviy monarxiya – toifa vakillari yig'iniga tayanadigan markazlashgan davlat vujudga keldi. Qirol hokimiyati yetarli darajada kuchli bo'lmagani sababli u toifalar madadiga muhtoj edi. Bu esa markazlashgan davlatning dastlabki bosqichi bo'lgan.

1.3. Lyudovik IX islohotlari.

Otasining o'limidan so'ng taxtga o'tirgan Lyudovik IX juda yosh bo'lganligi sababli mamlakatda ichki nizolar avj oladi. Davlat boshqaruvini katta ta'sirga va siyosiy qudratga ega bo'lgan onasi Blanka Kastilskaya qo'lga oladi. Lyudovik IX ning onasi juda aqlli ayol bo'lib, diniy jihatdan ham mukammal bilimga ega edi. Erining o'limidan so'ng, bu ayol aql va idrok bilan davlatni boshqardi. Qirol hokimiyatini kuchaytirib, Fransiya yerlarini kengaytirdi. Regentlikni o'z qoliga olgan qirolicha barcha qo'zgonlarni bostirishga muvaffaq bo'ladi Bundan tashqari, qirolichaga meros sifati ikkita tugallanmagan urush qolgandi. G'arbda inglizlar va janubda Tuluza grafi bilan urushlar olib borilardi. Bu ikkala urush ham g'alaba bilan nihoyasiga yetkazildi.

1236 yilda voyaga yetgan Lyudovikka tinch davlat meros sifatida tegdi va u boshqaruvni o'z qo'lga oladi. Qirolning davlat ishlariga kirishishi hukumat siyosatiga o'zgartirish kiritmadi. Qirol hukumati shunchalik kuchli ediki qirolga vassallar ustidan nazorat o'rnatish unchalik qiyin emas edi.

Ingliz qirol Genrix III Angliyaga tegishli eski yerlarni qaytarishga intilardi. Lekin 1242 yilda Talebur yaqinida inglizlar ustidan ijobiy g'alabaga erishadi. Erishilgan g'alabaga qaramay barcha fransuz qirollarining orzusi bo'lgan Akvitaniyani egallashga urinmadi. U hattoki Filipp II Avgust tomonidan Angliyadan olib qo'yilgan bir qancha yerlarni qaytardi.

Lyudovik feodalizm tuzumiga qarshi emas edi va u vassallarning huquqlarini hurmat qilardi. Lyudovik sud va sud ishlari bo'yicha ko'p islohatlarni amalga oshirdi. Feodal tuzumning kamchiligi qirollikda oily sud organining mavjud emasligini Lyudovik olib tashladi. Uning o'rniga qirolning o'z fuqarolarining ishlariga aralashish huquqini umumiy tartib sifatida o'rnatdi. Lyudovik sud kurashlari va xususiy urushlarni ta'qiqladi²⁷. Mahalliy sudlarning qaroridan norozi bo'lganlar qirollik sudiga apilyatsiya qilishi belgilab qo'yildi. Lyudovikka juda katta ishonch bildirilardi. Uning qaroriga hatto chet elliklar ham bo'ysunardi. Xalq orasida xatto Lyudovik haqida hikoyalar ham mavjud.

Lyudovik davrida sud hokimiyati sezilarli darajada kengaydi. Markaziy sudhokimiyati bo'lib, Parij parlamenti hisoblanardi. U perlar va yuristlardan tashkil topgan edi. Boshqaruvning barcha sohalari Lyudovikning kuzatuv ostida edi. Legistlar katta ta'sir kuchiga ega edilar. Ular qirol hokimiyatini kengaytirish vazifasini bajaradilar. Huquq va qonunlarning jamlanmasi (*“Etablissements de St.Louis”*) Lyudovik tomonidan tuzilib, nashr etildi²⁸.

Manbalarda yozilishicha, u ovni yaxshi ko'rgan va buning uchun ot, it, lochin kabilarga katta miqdorda pullar sarf qilgan. Lyudovik kitoblar va san'atni juda yaxshi ko'rardi. Uni o'rta asrlar san'ati homiysi deb atashgan. U ko'plab ibodatxonalar qurdirgan. Ular jumlasiga Reyms ibodatxonasi, Parijdagi Sen-Shanel cherkovi, Roymon ibodatxonasi kabilar kiradi.

Lyudovik IX Fransiyada qirol hokimiyatini kuchaytirishga qaratilgan bir qancha muhim islohatlar o'tkazdiki, ular kelgusida markaziy hokimiyatning kuchayishiga xizmat qildi. Bu islohotlar ichida Lyudovik IX ning sud islohoti muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra quyidagi yangi tartiblar joriy etildi:

- feodal sudi hukmi ustidan qirol sudiga (qirollikka) arz qilish mumkin;
- odam o'ldirganlik, talonchilik, birovning mulkiga o't qo'yish, soxta pul ishlab chiqarish bilan bo'g'liq jinoiy ishlar faqat qirol sudida ko'rib chiqiladi;
- feodallar o'rtasidagi o'zaro urushlar ta'qiqlandi²⁹.

²⁷ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. с.233.

²⁸ <http://www.wikipedia.ru/Lyudovik IX Svyatoy>.

²⁹ Xashimova M.M. O'rta asrlarda Fransiya. Toshkent 2014. 63-bet.

Lyudovik IX tomonidan “Qirollikning qirq kuni” deb atalgan tartib joriy etildi. Unga ko’ra, feodallarning o’rtasidagi muammolar qirq kun ichidaqirolga arz bilan borib, qaysi sabablarga ko’ra nizo kelib chiqanligini tushintirib, nizoni adolatli yo’l bilan bartaraf etish masalasida yordam so’rashi mumkin edi. Bu vaqt ichida kuchli tomon urush ochishga haqli emas edi. Ko’pincha, Lyudovik IX Vensen o’rmonidagi dub daraxti soyasida arz qiluvchi tomonlarni shaxsan o’zi qabul qilib eshitar va bir qarorga kelardi. Qabul qilingan hukm aksariyat hollarda mayda feodallar, ritsarlar foydasiga bo’lardiki, bu bir tomondan, yirik feodallarning qudratini sindirishga qaratilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan, kichik ritsarlar, shaharliklar va ruhoniylar oldida qirolning “adolatliligi”ga ishonchni mustahkamlar, ular o’rtasida qirol tarafdorlarini ko’paytirar edi.

Lyudovik IX davrida qirollik kengashi oldida sud ishlarini yurgizuvchi maxsus bo’lim (kuriya) tashkil etildiki, u “parlament” degan nom oladi.

Qirol hokimiyatining kuchayishida va mamlakatni markazlashtirishda Lyudovik IX tomonidan o’tkazilgan pul islohoti juda katta ahamiyatga ega bo’ladi. Qirol qirollik tomonidan zarb etilgan tanga pullarni butun qirollik hududida qo’llash haqida buyruq chiqaradin va oldingi tangalarning qirollikda qo’llanilishini man etadi. Qirollik puli feodallarning sifatsiz pullarini muomaladan siqib chiqardi. Natijada mamlakatda yagona pul birligi o’rnatildi. Bu, ayniqsa, shaharliklar uchun manfaatli edi.

Ma’muriy sohada Lyudovik IX bobosi Filipp II Avgustning islohotlarini mustahkamladi. Bu mamlakatda qirollik hokimiyati faoliyatiga, mahalliy amaldorlar, seneshellar, bal’i va xo’jalikdan olisda faoliyat ko’rsatuvchi ikkinchi darajali vakillarninghissalari va o’zining kuriyasi ustidan rahbarlik qiluvchi qirolning shaxsiy ulushlari kiradi. Mahalliy amaldor qirollik obro’sining mustahkamlanishi uchun qattiq mehnat qilganlar. Ular uning hamma narsadan qo’rqishini his qilishiga erishganlar. Ba’zida tartib o’rnatishda ularning kuchi kerak bo’lgan. Shuningdek, ular mansabdorlarga nisbatan ham agressiv siyosat olib borganlar. Ularning ba’zilari (janubda vige va bali, shimolda prevo) hali ham o’zlarining lavozimlarini pulga sotib olar edilar va o’zlarining talablarining

qondirilishida, shuningdek qirollik domenini yaxlitligidan manfaatdor bo'lganlar. Hamma o'zini asosiy shaxs deb tasvirlashni hojlagan. Ularning ba'zilari shu darajaga yetdilarki, hatto o'zlarini mustaqil deb hisoblaganlar va agar ularni o'z vaqtida to'xtatmaganlarida edi, unda ular yana janubda feodalizmni mustaxkamlashga xarakat qilganlar³⁰.

Qirollik kengashi yoki qirollik kuriyasi XIII asrda feodallarning syezdidan markaziy byurokratik muassasaga aylanib, so'ng u bir qancha boshqarma (vedomstvo) larga bo'linib ketdi. Kichik qirollik kengashi yoki "tor doiradagi kengash" ajralib chiqib, u qirolning va uning eng yaqin amaldorlarining kansler, konnetabel va markazlashtirish siyosatiga tortilgan, qirolga yaqin turgan oz sonli feodallarning doimiy ish ko'ruvchi kengashiga aylandi. Sud ishlarini yurgizuvchi qirollik kuriyasining boshqa qismi alohida muassasa bo'lib qoldi. Bu so'nggi muassasa Parlament (aynan: "sud mahmadonalari" kengashi) degan maxsus nom oldi. Nihoyat, soliqlar yig'ish va ularni harakat qilish hamda boshqa qirollik daromadlari ustidan qaraydigan alohida hisoblash palatasi kuriyadan ajralib chiqdi³¹.

Arxivlarda bal'ilar va seneshallar haqida hech qanday ma'lumotlar saqlanib qolinmagan. Faqatgina, zodagonlarning harakatlari ustidan qirolga yo'naltirilgan bir nechta shikoyatlarni ko'rish mumkin va quyida Lyudovik Avliyoning buyrug'iga ko'ra amalga oshirilgan izlanishlardan parchalarni ko'rishimiz mumkin. Ular qatoriga Alfonso de Puate knyazligiga tegishli hujjatlar kiradi. Domenning g'arbiy va sharqiy qismlariga nisbatan bal'i, seneshallar, prevo va ikkinchi darajali amaldorlarning dunyoviy va cherkov senyorlari va kommunlari hisobiga hokimiyatlarini ko'tarishlari haqidagi ma'lumotlari mavjud. Shubhasizki, ular qirollik farmonlari va kuriya qarorlaridan qoniqmas edilar. Ular qo'shni senyorlar hisobiga o'zlarining sud kompetensiyasini oshirishga harakat qilganlar. Masalan, Orlean yepiskopi 1245 yilda Lyudovik IX ga bal'ilar ustidan yozilgan katta shikoyat maktubini yuboradi; bu yerda gap eng avvalo yurisdiksiya

³⁰ Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.259

³¹ Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.259.

masalasiga tegishli bo'lgan. 1257 yilda Marsh grafinyasi Alfons de Puatiga shikoyat bilan murojaat qilgan; Puatu seneshali va uning amaldorlari grafinyaning odamlaridan qo'rqitib pul olganlar, uning yurisdiksiyasiga hujum qilganlar, o'z xohishlariga ko'ra sudga jalb qilganlar va qamoqqa olganlar. Lan Kastelyani Gont'e taxminan 1248 yilda senyoriyalarga zarar qilib, qirol "odamlari" ning sonini ko'paytirishga harakat qilgan. Shikoyatlarga kelsak, ular quyidagi ko'rinishda bo'lgan. Istalgan prevo yoki istalgan serjant to'g'ri kelgan odamlarni qamoqqa olganlar va jinoyatchilar bu ayblarini "jarima bilan yuvishlari" kerak bo'lgan, jarima yomg'irday oqib kelar edi, shuningdek jinoyatchi yanada ko'proq to'lash imkoniyatiga ega ekanligini bilganlarida esa jarimaning qiymatini oshirganlar; to'lovni amalga oshirishlariga erishish uchun varvarlarcha munosabatda bo'lganlar; qamoqxonalar qo'rqinchli bo'lgan va ularda iqror bo'lishlariga erishish uchun qiynoqqa solganlar; soliqlar tez-tez ko'paygan; harbiy majburiyatni shaxsan o'tashni xoxlaganlar bu majburiyat uchun pul to'lashlariga majbur qilingan. Shampanda senyoriyasi bo'lgan Juanvil salib yurishiga ikkinchi marotaba bormaslik uchun qonuniy sabab topdi; go'yoki u o'zining odamlarini himoya qilish kerak bo'lgan; qachonki u qirol bilan Misrda bo'lgan vaqtida, ular bu davrda Shampan grafi va qirol serjantlari tomonidan "Xonavayron qilingan va nochorlik ahvoliga tushib qolgan edilar". Bal'ilarining o'zlari o'zlarining obro'siga qaramay ayblovlardan qochmaganlar. Ularning ba'zilari, Matvey de Pon kabilar o'zlarining boshqaruvidagi aholisi tomonidan badnom qilingan edi; biroq, tergovlardan so'ng, unga qarshi barcha ayblovlar olib tashlangan. Normandiyaning Fillip II Avgust tomonidan bosib olinishidan so'ng, u g'ayratli odamga muhtoj bo'lib, daydi Lambert Kadokka ishonadi; albatta undan bunchalik katta vakillikni kutib bo'lmas edi. Shuningdek, u o'zining kissasiga qirolga tegishli bo'lgan 142000 livrni soladi va Filipp II Avgust bundan g'azablanib, uni qamoqqa oladi va u qamoqdan 1227 yilda chiqadi. Biroq, bu mustasno edi. Umuman bal'ilar ishonchli xizmatkorlar bo'lgan³².

³² Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.259-260.

Tuluza grafligida graflarning mustaqilligi paytida seneshallar mavjud bo'lgan va bunday qudratli senyoriyalar o'zlarining amaldorlariga o'zlari xoxlaganlaricha talon-taroj qilishlariga imkon berganlar; ularning urf-odatlarini shunday bo'lgan. Lyudovik VIII va Lyudovik IX tomonidan tayinlangan seneshallar va ularning noiblari shimoldan bo'lgan mashhur kishilar yoki maslahatchilari bo'lgan. Ularga kam to'laganlar va ular ustidan kuzatish uchun qulay bo'lgan Parijdan juda ham uzoqda joylashganlar. Ular o'zlariga yomon odatlarni o'rganib olganlar. "Bailes" deb nomlangan ularning prevolari ko'pincha mayda odamlardan tashkil topgan va ulardan yaxshi bo'lmagan. Ilgarigi sistemalardan jabr ko'rgan aholi endi qonuniy bosqinchiliklar ko'rinishini bergan, dinga qarshi chiqqan kishilarning ta'qibiga uchraganlar. Tartib o'rnatish va qirol huquqlarini himoya qilish bahonasi ostida Lyudovik Avliyo seneshallari ko'p sonli qasrlarni vayron qilganlar, qirollikdan tashqari boshqa yurisdiksiyalarning faoliyatini to'xtatganlar, faqatgina qirollik domenida kuchga ega bo'lgan baroniyalarda farmonlarni qabul qilganlar, o'zlarining seneshallari chegaralariga qadar qirol xususiy yerini kengaytirishga harakat qilib, yo'l politsiyasini o'z qo'llariga olganlar. Yujan oilalarini vayron qilgan Albigay salib yurishlaridan so'ng, Jevodanda va Valeda mayda kambag'al baronlardan tashkil topgan zodagonlar qolgan. Boker seneshallari shu seven zodagonlari bilan qaqshatqich urush olib borganlar, Pelening obro'siga putur yetkazganlar, senyor Andyuzning mulklarining bir qismini mahrum qilganlar. Ular hatto imperiya yeriga, Vivarega bostirib kirganlar, u yerda Vive shahri yepiskopini sudga tortganlar.

Ma'muriyat sohasida o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida, bal'ilar, seneshallar va prevolarning majburiyatlari haqida 1254 yildava 1256 yilda farmonlar e'lon qilindi. Bal'i yoki seneshallar o'zlarining lavozimlariga kirishlaridan oldin, u to'g'ri sud qilishi, mahalliy hukumdorni hurmat qilishlari, qirol huquqlarini himoya qilish, hech qanday sovg'alarni qabul qilmaslik, o'zi ham qirollik kuriyasi maslahatchilariga bermasligiga maydonda qasamyod qilishi lozim edi. Uning ortidan provinsiya hukmdorlari haqida rim qonunlariga o'xshash farmonlar chiqqan. Masalan, bal'ilarning boshqa joyga ko'chirilishi hollarda u tomonidan

yetkazilgan istalgan zararni undirib olish uchun u ellik kun davomida o'zining ilgarigi joyida qolgan. Bal'i va seneshallar - ruxsatsiz uylanishlari, o'zlarining okrugida yerlarni qo'lga kiritish huquqiga ega emas edilar. Ularga kutyum tomonidan ko'rib chiqilmagan soliqlarni olish, pul olish uchun qo'rqitish yoki nayrang ishlari ta'qiqlangan, aybdor bir kishi bo'lganda qiynoqqa solish ta'qiqlangan.

XIII asrning birinchi choragi davomida ijtimoiy harakatlarning rivoji davom etgan. 1205 yildan boshlab 1224 yilga qadar Filipp II Avgust va Lyudovik VIII yana qayta birlashtirib olingan viloyatlarda - shimoli-sharqda, Normandiyada, Puatuda va Sentonj shaharlarida kommunallar qurishga ruxsatni tasdiqladilar. Bu vaziyatda ular tomonidan boshqarilayotgan maqsad - o'zlari ortidan yaxshi himoyalanaoladigan mudofaani qoldirish, shuningdek tajribali shahar politsiyasini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Filipp II Avgust senyorlar tomonidan berilgan communal xartiyalarini ham tasdiqlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, qirol qirolikdagi barcha kommunallarning yagona syuzereni hisoblangan. Parijning ulkan g'aznasi "Savdogarlar" yangi lavozimlarga - savdo va sudga bo'linadi: XIII asr davomida u asta-sekin munistipatsiyaga aylanadi va 1263 yildan boshlab unda savdo prevosi va to'rt esheven paydo bo'ladi. Shampanidagi mashhur yarmarkalarda bo'lgan fransuz va chet el savdogarlari doimo talon-taroj xavfi ostida bo'lgan bo'lsalarda, Filipp II Avgustning haqiqiy homiyligidan foydalanganlar. Bir so'z bilan aytganda, Lyudovik Avliyoning mustaqil hukmronligiga qadar, qirol va boy burjuaziya o'rtasida tuzilgan ittifoq hech qachon bo'lmaganidek ancha kuchli bo'lgan. Shimoliy shaharlarning deyarli hammasi 1214 yilda shuningdek, uning regentligi davrida Blonka Kastilskiy ham Filipp II Avgustni qo'llab-quvvatlaydilar.

Lyudovik IX hukmronligi davrida tanaffuslar kuzatiladi. Burjuaziya boyishni davom ettiradi va korporativ sistemasi esa mustahkamlanadi; aynan shu davrda Eten Bualo o'zining mashhur "Sexlar haqida kitob" asarini yozadi. Kambag'allarga zulm ko'rsatishni boshlagan, boylarning zulmlari va ba'zi

shaharlar moliyaviy boshqaruvidagi tartibsizliklar Lyudovik Avliyoni yangi siyosat olib borishga majbur qiladi³³.

Janubda bu qirol seneshallar tomonidan amalga oshirilayotgan o'z hokimiyatlarini suiste'mol qilganliklari bilan tanishib, shahar boshqaruvliklarni qayta tiklash ustida ishlaydi.

1254 yilda u Boker va Nilga xartiya hadya qilgan, oxirgi shaharda konsullik qayta tiklangan. 1262 yilda Lyudovik shaharda konsullikni qayta tiklagan. 1262 yilda Lyudovik Avliyo "Fransiya" va Normandiya kommunallari har yili Parijga 17 noyabrga qadar o'zlarining hisob kitoblarini yetkazibgina qolmasdan, balki aynan 29 oktabrda ularning shahar boshqaruvliklari qayta yangilangan. Faqat ma'lum viloyatlarga ega bo'lgan bu ikki farmonlar vaqti o'tib, Lyudovik Avliyoning o'g'li hukmronligi davrida amalga oshirilmay qolgan.

Qirol tomonidan qo'llaniladigan bunday choralardan maqsad shaharlardagizodagonlar bilan kurashish uchun, shahar boshqaruvliklarning haqqoniy tarzda amalga oshirilishini ta'minlash bilan birga, shuningdek, boylarni esa o'zlarining daromadlarini yashirmaslik va soliqlarni o'zlarining boyliklariga mos ravishda to'lashga majbur qilish bo'lgan.

XIII asrda qirollik hokimiyatining dehqonlar va qishloq jamoalariga nisbatan munosabati tarixi unchalik ma'lum emas. Aftidan, qirollik hokimiyati ularga nisbatan konservativ siyosatini olib borgan, shuningdek, ularning ishlariga avvalgiga nisbatan ko'proq aralashgan, xususan jamoa yaylovlari va foydalanish huquqlariga tegishli ishlariga ham aralashgan. Obrok, harbiy majburiyatni va soliqlarni oshirganlar, lekin dehqonlarga katta baxt -xavfsizlikni ta'minlaganlar. Politsiyaning yaxshilanishi, senyorial talonchilikning tugatilishi qishloq aholisiga uzoq davrlardan buyon berilmagan faravonlikni ta'minlagan. XIII asrda dehqonlar uchun moddiy va ma'naviy yuksalish davri bo'lgan; Fransuzlar yerlari uchun yangi maydonlarni haydashni, madaniyatning yaxshilanishi va yana aholi sonining ko'payishi bo'lgan. Qirollik hokimiyati bu uyg'onishning asosiy faktori bo'lgan.

³³ Шарль Пти-дютайи. Феодалная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.278.

Haqiqatdan ham, bu davr servlarning uzoq davom etgan dam olish davri bo'lgan. Ular qirollik domenida, shuningdek, ular yetarlicha boy bo'lgan boshqa joylarda ham erkinlikni qo'lga kiritganlar. Lyudovik Avliyo har bir ozod qilingan kishining mulkidan ma'lum foiz evaziga servlar yashayotgan butun boshli qishloqlarni jamoaviy tarzda ozodlikka chiqargan birinchi qirol bo'lgan. Yuzlab qishloqlar, bir necha minglab xo'jaliklar undan xazinaga uzluksiz foyda keltirib turgan yaxshilikni olishdi. Qirollik yorliqlarining tantanali shakliga qaramasdan servlarning ozod qilinishi bor yo'g'i davlatning usuli edi. Biroq, Lyudovik Avliyo tinchlik va adolatni xohlashi bilan, qirollik hokimiyati qishloqlarda misli ko'rilmagan darajada obro' qozondi. 1251 yilda qirolning Misrdagi halokati haqida xabar tarqalgach, cho'ponlar va dehqonlar fanatiklardan birining chaqiruviga javob tarzda qirolga qo'shilish uchun qirollikning butun shimoli-sharqini oyoqqa turg'azishdi. Blanka Kastilskaya bu badbaxt ammo klirik va dvoryanlardan ko'ra oliy janob bo'lgan kishilar haqiqatdan ham uning o'g'lini ozod qilishga boradi deb ishonib, ularni qo'llab-quvvatladi. Biroq, ularning mablag' yo'q edi va shuning uchun talonchilik yo'lga o'tib ketishdi. "Cho'ponlar" salib yurishlari yaxshilik bilan tugamadi. Biroq, u tarixda adolat nuqtai nazaridan aytganda Fransiyada kichkina odamning rahmdil qiroliga muhabbatining namoyon bo'lishi sifatida tarixda qoldi. "Hamma uni yaxshi ko'radi" deb yozgan edi Lyudovik IX haqida Gibert de Turno.

1270 yilga kelib, Fransiya qirolligining janubida ham, shimolida ham bir xil holatni ko'rish mumkin edi; monarxiya hurmat qozongan edi. Kapetinglarning domeni Artua balyajidan Karkasson seneshalligiga qadar yoyilgan; 1202yildan boshlab, birlashtirib olingan yerlarning bo'ysundirilishi tugallangan deyish mumkin, agar absolyut monarxiya davrida ham qolgan xilma-xillikni inobatga olmasak. Bu kuchli assimilyasiya XIII asrda erishilgan qirollik qudrativa kapetinglar boshqaruvi uslubining eng yorqin namunasi³⁴. Qirollar eng avvalo, o'zlarining bosib olgan hududlariga qayta hujum bo'lmasligini va Normandiyaning

³⁴ Шарль Пти-дютайи. Феодалная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.279-282.

baronlarini va shaharlari va ingliz qirollari o'rtasida ittifoq tuzishga yo'l qo'ymasligini ta'minlashlari lozim edi. Shuning uchun, strategik punktlar ustidan nazorat o'rnatildi. Qirollarning himoyasi esa ishonchli kishilarga topshirilgan. Lamanshlarning u tomonida faqat cherkovlar o'zlarining mulklarini saqlab qolishi mumkin edi. Amaldorlar va shaharlar ma'lum ruxsatsiz Angliya bilan nizolarga borishi ta'qiqlangan edi. Istilolar paytida Angliyaga kelib qolgan normandlar ogohlantirish oldilar, ular 1204yilning yangi yil (rojdestvo) ga qadar o'zlarining davlatiga qaytishlari va qirol Filipp sudi oldida javob berishlari kerak edi; bu muddatdan kech qaytganlar o'zlarining mulklaridan mahrum qilinganlar va Angliyaga ketgan yoki dushman bilan aloqada bo'lganlarning ham mulklaridan mahrum qilinganlar. Bu qonunlar qat'iy bajarilgan. Normandiyadagi ingliz senyorlarning mulklariga kelsak, unda ular musodara qilingan. Bu musodalar tufayli Filipp II Avgust gersoglik domenini boyitadi va amaldorlar, ritsarlar, oddiy qirollik serjantlari shunday yerlarga egalik qilganlar va Normandiyada ular mustahkam o'rnatilib oladilar.

Boshqa tomondan, qirol Normandiyani boshqarishni va uni "qirollar Genrix va Richard" lar kabi undan foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Uning amaldorlari "bu mamlakatni ilgorigidek boshqaruvni amalga oshirish uchun" izlanishlarni olib bordilar.

Ma'muriyatlardagi asosiy yutuq bu Normandiyada seneshallar lavozimining yo'q qilinishi va "bal'i" larning joriy qilinishi bo'ldi; ular qirolning haqiqiy noiblari bo'ldilar va ular eng boy zodagonlar orasidan saylanganlar. Shaxmatlar doskasi palatasi uning sud va moliya funksiyalari bilan birgalikda saqlanib qolinadi. U sud qilishni davom ettirdi va uning oldiga Normandiya bal'ilari kelib o'zlarining hisobotlarini topshirganlar. Qirol odamlari bu yerga huquq va ma'muriyat darslarini olishga kelar edilar. Shuningdek, ular uni kuzatganlar ham. Shu asrning birinchi uchunchi choragida qirollik kengashining eng mashhurlari, masalan, Sansil yepiskopi Geren va Shambrie Varfolomey de Rua bu palataning kengashida g'ayratlik bilan ishtirok etganlar. Lyudovik Avliyo o'zining hukmronligining oxirgi yillarida o'zining sog'ligining yomonligiga qaramasdan,

Normandiyaga bir necha marta ziyorat qiladi. Bu yerga sayohat - qirollar uchun unchalik qiyin kechmagan, ular bu yerga o'zlari yuborgan amaldorlarining harakatlarini o'zlari nazorat qilayotgandek ko'rsatish kabi masalalarga katta ahamiyat bergan. Amaldorlar o'z ishlarini yaxshi bajarganlar, bu taftish ishlari bilan isbotlangan, chunki tekshiruvchilar tomonidan bal'ilarga ba'zi-ba'zida shikoyatlar yuborilgan. Mahalliy aslzodalar feodal majburiyatlarni bajarishi zarur edi va qirollik hokimiyatiga talab qilgan jangchilarni yetkazib berganlar. Biron marta kapetinglarga tegishli bo'lmagan Normandiya Angliya istilochilarining markazi aylangan. Oxirgi Plantagenetlar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklar, bu mamlakatni Fransiya bilan yaqinlashtiruvchi til va madaniyat umumiyligi, normandlarning qudratliligi, shuningdek, kapetinglar ma'muriyatining puxtalik bilan ish ko'rishi Lyudovik Avliyodan rahm-shavqat, adolat va tinchlik sevuvchi qilishi, bularning hammasi nima uchun bunday sodir bo'lganini tushuntirib beradi.

Lyudovik Avliyoning hukmronligining oxirlarida uning ahvoli Fransiya chegarasining ortida ham kuchliroq edi. Fransiyaning o'zi o'rta asrlar davomida fransuz sivilizatsiyasi erishmagan va erisha olmaydigan darajada gullab-yashnaydi va obro' qozonadi. Mashhur rassomlar "gotik" uslubini bu davrda ularning vorislari ulardan o'ta olmaydigan darajada, kamoliga yetkazadilar; G'arbda arxitektorlar fransuz namunalariga o'xshatishga harakat qilganlar. Fransuz qadimiy adabiyotining bu davrga tegishli bo'lgan eng mashhur yodgorligi bu "Roman o roze" ("*Roza haqida hikoya*") dir. Bunday gullab-yashnash davrida qirollik hokimiyati o'zining qudratiga erishadi. Matvey Parijskiy Fransiya qirollarini "yerdagi qirollarning qirol" deb nomlaydi³⁵. Uning bu gapi bilan kim bahslashishi mumkin? Angliya qirol" bu paytda o'zining baronlari bilan nizolarga yakun yasaydi; bu qirollik faqat mag'lubiyatni bilgan. Uning Ivzeme yaqinidagi yagona g'alabasi - bu o'zaro urushlardagi g'alabasi edi. Uning tashqi siyosati ham samarasiz bo'lgan. Ikkala Sitsiliya qirolliklari uning o'g'li Edmund, Germaniya esa uning ukasi Richard Kornouolskiy davrida qo'ldan boy beriladi. Kastiliya va Aragon qirolliklari uchun XIII asr muvaffaqiyatli g'alabalar va gullab-yashnash

³⁵ Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.283.

davri bo'lgan; biroq, Lyudovik hayotligining oxirgi yillarida zamondoshi Alfanso X Kastilskiy imperatorlik tojiga xiralik qilgan, bu paytda esa Aragon mulklari endigina O'rtayer dengizi qirg'oqlari bo'ylab yoyilayotgan edi. Germaniyada va Italiyada o'z zamonining eng aqlli odamlaridan biri bo'lmish Fridrix II imperiyaning qudratini yanada kengaytirishga harakat qiladi. Biroq, u murosasiz papa bilan to'qnash keladi. Uning vafot etishi bilan (1250 y) imperatorlarning obro'si uzoq vaqtga tugatilgan edi. Germaniyada xaosdan parchalanishlar evazigagina qutilib qoladilar. Papalikning o'zi Gogenshtaffenlar ustidan qozongan og'ir g'alabasidan keyin, inqirozni boshidan kechirayotgan edi; Lyudovik Avliyoning Tunisga salib yurishi vaqtida Rim taxti bo'shab qoldi (1268-1271), chunki kordinallar Kliment IV ning vorisini saylash masalasida o'zaro kelisha olmadi; Italiyada o'sha paytda Lyudovik Avliyoning akasi Karl Anjuyskiyga tegishli bo'lgan ikkala Sitsiliya qirolligi yagona yirik kuch edi.

Qirol amaldorlarining, ayniqsa sud boshqarmasidagi amaldorlarning katta bir qismi universitetlarda "Rim huquqi" dan ta'lim olgan shaxslar bo'lib, ko'pincha ular pastki tabaqadan chiqqan, lekin baland martabaga erishganliklari uchun butkul qirolga xizmat qilishga tayyor turgan va unga sodiq kishilar edi. Odatda, ularni legistlar (lotincha lex-"qonun", "huquq" so'zidan kelib chiqqan) deb atardilar. Legistlar ko'p vaqt shaharliklar orasidan chiqar edi. Qirol hokimiyatining shaharlar bilan ittifoqi ana shu vaqtda yana bir marta isbotlandi.

Shuhratparast siyosatchi bundan qulay sharoitda o'zining sulolasining obro'si uchun foydalanib qolar edi. Biz yuqorida saroydagi partiya Angliya bilan tinchlik shartnomasini imzolashini xoxlamaganini ko'rdik. Hatto xalqning o'zida qirol ustidan mazax qilgan odamlar bo'lgan, chunki u judayam ruhoniyya o'xshash bo'lgan. Biroq, Lyudovik Avliyo yer haqida emas, balki ko'proq o'z manfaatlariga haqida o'ylab o'zining yo'lini davom ettirdi. U boshqalarning huquqini hurmat qilgan va urushni yomon ko'rgan: u o'limdan qo'rqgani uchun emas, balki urush gunoh qilishga majbur qilgan va ko'plab baxtsizlarni do'zaxga yuborgan. U faqatgina Iso payg'ambar dushmanlariga qarshi olib borilsagina yaxshidir. Uning tinchliksevarliligi ana shunday mazmunga ega. U o'zining qirolligini hujumdan

himoya qilgan, o'zining huquqini himoya qilgan, biroq urush vaqtida bechora odamlar haqida o'ylagan va ularga shafqat qilishni maslahat bergan; biroq u ko'proq urush bilan bog'liq gunohlardan qo'rqqan³⁶.

Lyudovik IX davrida Puatuning janubiy qismi va Tuluza shahri bilan G'arbiy Langedok qo'shib olindi. Qirol 1259 yilda Angliya bilan Fransiya o'rtasida tinchlik shartnomasini tuzdi, bu shartnoma Fransiya uchun foydali edi. Bu tinchlik shartnomasiga muvofiq (bu Parij tinchlik shartnomasi deb atalar edi) ingliz koroli shimolda va shimoli-g'arbda ilgariroq o'z qo'lidan boy bergan viloyatlardan-Normandiya, Anju va boshqalardan qat'iy voz kechib, o'z ixtiyorida faqat Akvitaniani, shunda ham fransuz qiroliga vassallik huquqi bilangina saqlab qoldi.

Shuning uchun, shu kayfiyatda u o'zining qo'shni davlatlari bilan kelishuv tuzadi va Suriyadan qaytguniga qadar o'sha yillar davomida Yevropada tretey sudyasi bo'lishga rozi bo'ladi. U bir vaqtning o'zida Angliya qirolini bilan va Aragon qirolini bilan to'qnashuvlarga olib keladigan har qanday tushunmovchiliklarga chek qo'yib har qaysisining huquqini o'rnatishga kelishib oladi. Aragon qirollari bundan bir necha yillar oldin "langedok tilida so'zlashuvchi xalqlar" ustidan va Langedok ustidan syuzerenligining o'rnatilishi borasidagi talablarni ilgari surgan edilar.

Lyudovik IX o'zining hukmronligining oxirgi yillarini xristianlar o'rtasida tinchlikni o'rnatishga bag'ishlaydi. Gennegauga grafinyasi Margaritaning ikki nikohdan bo'lgan o'g'illarini o'zaro yarashib olishga majbur qiladi. U ikkinchi nikohdan bo'lgan Vilgelm de Dampverrga Flandriya grafliğiga, birinchi nikohdan bo'lgan Ioann d'Avenga esa Gennegauga vorislik qilishlarini belgilaydi. Biroq, grafinya Margarita Genegau mulkchiligini topshirgan Karl Anjuyskiy uning ustidan syuzerenlikni saqlab qoladi, bu esa kelgusida imperiya yerlariga fransuz qirollarining da'vosi uchun sabab bo'lib xizmat qildi (1256 yil 24 sentabrdagi Baron shartnomasi).

Shuningdek, Lyudovik IX Navarra qirolini va Bretan gersogini o'rtasida, graf de Bar va uning qo'shnilari o'rtasida, Lyuksemburg grafi va Lotaringiya gersogini

³⁶ Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.286.

ustida trety sudya bo'ladi. Uning imperiyaning qulashidan foydalanishi qulay bo'lgan, Arelat va Vinn qirolligida ham Fransiya qirolligi Burgundiya grafi va Shalon grafi o'rtasida, dofin Gig va uning qo'shnilari o'rtasida, Savoyya gersogi va Karl Anjunskiy, Lion aholisi va Lion kafedra soborining qonun chiqaruvchilari o'rtasida ham trety sudyasi bo'lib chiqadi. Qirol uning otidan ishlarni ko'rib chiqishi uchun Petr Shambellanga o'xshash aqlli maslahatchilarini yuboradi.

Qachonki ingliz baronlari va Genrix III o'zlarining nizolari vaqtida unga papa tomonidan inkor qilingan "Oksford Proviziya" lari haqiqiyliги haqidagi masalani hal qilishni ishonib topshirganlarida, Lyudovik Avliyo o'sha paytda "Xartiya xazinasida" saqlanuvchi hujjatlarni unga yuborishini so'radi va ikkala tomon bilan uchrashish uchun Amvenga yo'l oladi. 1264 yilning 23 yanvarida u "Oksford Proviziya" larining bekor qilinishi haqida hukm chiqardi. Bu "Amen Miza" (Mise d'Amiens) si o'zida Lyudovik Avliyoning aniq siyosiy g'oyalarini aks ettiradi³⁷.

Lyudovik hukmron bo'lgan davrda Fransiyada qirol hokimiyati mustahkamlanib, mamlakatni birlashtirish borasida o'zidan oldingi qirollar ko'p ishlarni amalga oshirib bo'lgan edi. Kapetinglar uchun asosiy xavfni inglizlar qo'lida bo'lgan Gaskon va Akvitanija tug'dirar edi. 1241 yilda Puatu baronlari qo'zg'olon ko'targanlar. Lyudovik bu hududning hukmdori ukasi Alfonsga yordamga boradi va birin ketin qal'alarni egallaydi. Qo'zg'olonchilar ingliz qirolligi Genrix III dan yordam kutadi, ammo inglizlar 1242 yilda, Lyudovik asosiy qal'a hisoblangan Frontneni egallagandan so'ng yetib keladi. Lyudovik ingliz qirolligining armiyasini Senta devorlari ostida tor-mor keltiradi. Genrix o'z qo'shinini tashlab qochishga majbur bo'ladi. Tez orada u Lyudovik bilan tinchlik sulhini imzolab, unga ko'ra Puatu Kapetinglar mulki deb e'lon qilinadi. Ko'p o'tmay, Lyudovikning ukasi Karl Anjuyskiy nikoh orqali Provans grafligini ham o'z hududiga qo'shib oladi. 1247 yilda Tuluza grafi Raymond vafotidan so'ng uning yerlarini qirolligining ukasi Alfons o'z hududiga qo'shib oladi. Feodal urushlariga chek qo'yib va inglizlar bilan tinchlik sulhini imzolagandan so'ng Lyudovik salib yurishlariga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

³⁷ Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва 1938г. с.291.

II BOB. Kapetinglar hukmronligi davrida Fransiya tashqi siyosati.

2.1. Fransuz qirollarining sharqqa bo'lgan yurishlardagi ishtiroki.

XI – XIII asr xalqaro munosabatlariga salib yurishlari katta ta'sir ko'rsatdi. Salib yurishlari 1096 yildan to 1270 yilgacha, qariib ikki asr davom etgan G'arbiy Yevropa feodallarining bosqinchilik urushiga aylandi. Ularni (urushlarni) tashabbuskori urushlarga xristianlarni musulmonlarga qarshi kurashi ramzi misolida diniy tus bergan Katolik cherkovi edi. Salib yurishlari, sharqdagi boy yerlarni bosib olish, o'z boylik va daromadlarining ko'paytirish maqsadida bo'lgan g'arbiy Yevropa feodallarining o'sib borgan tajavvuzlaridan kelib chiqqan. Salib yurishlaridan sharqiy yerlarni bo'ysindirish yo'li bilan o'z ta'sir doirasini kengaytirishga uringan katolik cherkovi manfaatdor edi. Salib yurishlari xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixida eng muhim davr hisoblanadi³⁸.

Salib yurishlar deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha uzoq vaqt davomida Yaqin Sharqda - Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borgan harbiy-kolonizatsiya ekspeditsiyalari ko'zda tutiladi³⁹. Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar diniy ruhdagi ekspeditsiyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni - «butning -

³⁸ История средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. Т.1. М. 1977 г. С.201.

³⁹ Заборов М.А. Крестоносцы на Востоке. М., 1980 г. С.5.

yarim oyga» qarshi, xristianlikning - islomga qarshi kurashi deb e'lon qilgan edi. Yurishlardan muddao Falastinni «kofirlar» dan xalos qilish va xristianlar e'tiqodicha, Quddusdagi «Iso payg'ambar qabri»ni xristianlarga qaytarib olib berishdir deb, rasmiy e'lon etildi. Haqiqatda esa, bu bosqinchilik yurishlaridan iborat bo'lib, ularda Yevropalik baronlar va ritsarlar hech tap tortmay, Sharqning shaharlarini taladilar, butun-butun knyazlik (beklik) va qirolliklarni bosib oldilar, o'zlari uchun feodal rentasining yangi soliq to'lovchilarini qo'lga kiritdilar. Ammo, Salib yurishlarida feodallardan tashqari jamiyatning boshqa tabaqalari, jumladan, dehqonlar ham qatnashdilar. Bu hol Salib yurishlariga endi yalpi, ommaviy tus berdi. Zamondoshlarga butun Yevropa harakatga kelganday, xalqlarning qandaydir yangi buyuk hijrati yuz berganday bo'lib ko'rindi.

Salib yurishlarining sabablarini qisman XI asrning ikkinchi yarmida Yaqin Sharqda yuz bergan o'zgarishlardan, qisman feodal G'arbiy Yevropaning o'zidagi umumiy iqtisodiy taraqqiyot va keskin ijtimoiy ziddiyatlardan qidirmoq kerak.

XI asrda Sharqda Yevropa feodallarining hujum qilishi uchun juda qulay bir vaziyat maydonga kelgan edi. Bir vaqtlar qudratli deb hisoblangan Bag'dod xalifaligi 1055 yilga kelib batamom tarqaldi⁴⁰. Boshqa yirik davlat - Komninlar zamonidagi Vizantiya ham og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Bolqon yarim oroliga bostirib kirgan pecheneglar Vizantiya impisriyasiga shimol tomondan hujum boshlagan edilar. Sitsiliya normannlari g'arbdan Vizantiyaga xavf solmoqda edilar. Ammo saljuq turklari Vizantiya uchun aypinsa xavfli edilar, ular Kichik Osiyoning katta bir qismini bosib olgan va ayni zamonda, Konstantinopolga qo'shni bo'lgan Nika shahrini o'zlariga poytaxt qilib olgan edilar. 1071 yilda turklar Maptsipkert shahri yonida vizantiyaliklarni qattiq mag'lubiyatga uchratdilar. Yangi imperator Aleksey Komnin (1081 yildan idora qila boshlagan edi) garchi turklarning bir necha hamlasini to'xtatgan bo'lsada, lekin har holda, imperiyaning ahvolini mustahkam deya olmasdi. XI asrning 80 va 90 yillarida u turklarga qarshi yordam berishni so'rab Papaga va Germaniya imeratoriga bir

⁴⁰ История средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. Т.1. М. 1977 г. С.203.

necha bor murojaat etdi. Ilgari yakkayu-yagona bo'lgan xristian cherkovi 1054 yildan e'tiboran ikkita raqib qismga - sharqiy (pravoslav) va g'arbiy (katolik) cherkovlarga qat'iy ajralib ketgan bo'lsa ham, Aleksey Komnin siyosiy maqsadlarni ko'zda tutib, Papa boshchiligida bu cherkovlarni hatto qaytadan birlashtirishga ham tayyor edi. Shunday qilib, Sharqning ikki eng yirik davlati - Arab xalifaligi bilan Vizantiya imperiyasi - salibchilarga biror-bir jiddiy to'sqinlik ko'rsatishdan ojiz edilar. Buning ustiga, ulardan biri - Vizantiya hatto Yevropa feodallarini Sharq mojarolariga aralashishga da'vat etdi. Turklarga kelsak, XI asrning 80 va 90 yillariga kelib ularning nomustahkam harbiy-qabila ittifoqi tarqalib keta boshlagan edi. Feodallashib borayotgan ayrim turk bekliklari g'arb feodallarining hujumini to'xtata olmadilar.

Ammo salib yurishlarining, jumladan, birinchi salib yurishining asosiy sababi, axir-pirovardi, G'arbiy Yevropaning o'zidagi ijtimoiy ziddiyatlarning o'tkirlashib ketganligi edi. XI asrda mayda ritsarlarning ko'pchiligiga yer yetishmas edi. Savdo-sotiq va shaharlarning rivojlanishi natijasida ehtiyojlarning o'sib borishi munosabati bilan feodallarning mahalliy dehqonlarni ekspluatatsiya qilishdan oladigan daromadlari ular uchun kifoya qilmaydigan bo'lib qoldi. Juda ko'p ritsarlar yerdan butkul mahrum qilingan edilar, chunki feodallarga qarashli yer-mulk va daromadlar (feod) odatda katta o'g'ilga berilar edi va kichik aka-ukalar esa otadan qolgan merosdan biror narsa olishga haqlari yo'q edi. Sharqdagi yerlarni bosib olish maqsadida u yerlarga yurishlar qilish bunday ritsarlarning mushkul ahvoldan chiqishlarining birdan-bir yo'li edi. Yirik feodallar (knyazlar va baronlar) o'z sinflari ichidagi mojaro va ixtiloflarning oldini olish uchun ritsarlarning diqqat-e'tiborini boshqa narsalarga jalb etish muhimroq edi.

XI asr oxiri - XII asr boshida salib yurishidagi g'oyat muhim masala - dehqonlar masalasi edi⁴¹. G'arbiy Yevropaning feodal zulmi natijasida asoratga tushirilgan, ezilgan dehqonlari dastlabki paytlarda Sharqqa bajonu dil yo'l oldilar. Krepostnoy qaramlikdan xalos bo'lish, qarzlarni tugatish, Sharqdan yer olish umidi (shuni aytish kerakki, dehqonlarning geografik tasavvuri tamomila xayoliy, amalga

⁴¹ Заборов М.А. Крестоносцы на Востоке. М., 1980 г. С.25.

o'shmaydigan bir tasavvur edi) o'n minglab kishilarning tug'ilib o'sgan shahar va qishloqlarini tashlab, uzoq yurtlarga ketishga majbur etdi va ularning ko'plari bu joylarda och-yalang'och qolib, xor-zorlikda o'lib ketdi. Dunyoviy va ruhoniy feodallar dehqonlarning Sharqqa qiladigan yurishini vujudga kelgan og'ir ahvoldan qutulishning o'ziga xos bir yo'li deb bilardilar. Bu narsa tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan feodal-krepostnoylik tuzumi keng tarqalayotgan va feodal ekspluatatsiyasi kuchayib borayotgan bir sharoitda Yevropada dehqonlar urushining to'g'ridan-to'g'ri boshlanib ketish xavfidan hukmdor sinflarni qutqargan bo'lardi. Ko'pdan-ko'p monaxlar va boshqa daydi voizxonlar dehqonlar orasida targ'ibot yurgizib, ularni Sharqqa yurishdek «ezgu ishda» qatnashishga da'vat etardilar. Biroq dehqonlar masalaning mohiyatiga darhol tushunib etmagan bo'lsalarda, lekin oqibat-natijada, ular gapning nimada ekanligini ochiq-oydin payqab oldilar. Sharqqa qilingan dastlabki ikki yurishda dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsalar, uchinchi yurishdan boshlab ular qatnashmay qo'ydilar. Bunday keyingi salib yurishlarining hammasida faqat feodallarning o'zlari qatnashdilar. Yevropa qirollari, eng yirik feodallar (graflar va baronlar), shuningdek, ko'pdan-ko'p ritsarlar Yaqin Sharqda, faqat Arab Sharqidagina emas, balki Vizantiyada ham yangi feodal davlatlar barpo etish masalasini ochiqdan-ochiq ko'zlay boshladilar. Quddus va Falastin masalasi, keyinchalik ularning planlarida ikkinchi darajali masala bo'lib qolgan edi.

Italiya shaharlari, ayniqsa ulardan ikkitasi - Genuya bilan Venetsiya salib yurishlarida juda aktiv qatnashdilar. Bu shaharlarning floti salibchilarni Sharqqa tashib olib bordi, salib lashkarlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turdi. Bosib olingan territoriyalarni taqsimlashda bu har ikki shahar qatnashib, birinchi galda Sharqning portlari va bozorlarini o'zlariga monopoliya qilib olishga harakat qildilar. Lekin, shunga qaramay, shaharlar salib yurishlarida harakatga keltiruvchi asosiy kuch emas edi.

Sharqqa qilingan salib yurishlarini «muqaddas urushlar» deb e'lon etgan katolik cherkovi, tabiiy, bu yurishlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga

intildi⁴². Bu vaqtga kelib, papalik zo'r qudratga ega bo'ldi. Dunyoviy hokimiyat bilan olib borilgan to'qnashuvlarda papa imperatorlarning o'zini bir necha marta mag'lubiyatga uchratdi. Salib yurishlari papalikka ko'pgina real foydalar keltirishi: parchalanib ketgan feodal Yevropasiga siyosiy jihatdan rahbarlik qilishi, sharqiy «sxizmatiklar»ni, ya'ni sharqiy pravoslav cherkovining ajralib ketgan xristianlarini Rimga bo'ysundirish uchun, katolik ruhoniylari katolitsizm mazhabiga o'tkazishni orzu qilgan. Sharq musulmonlari orasidagi missionerlik faoliyati uchun juda katta ionalar to'plashi mumkin edi. Ana shu vajdan, papa Urban II 1095 yilning kuzida Janubiy Fransiyaning Klermon shahrida ko'p kishilik cherkov yig'inini to'plab, unda so'zga chiqib «kofirlar»ga qarshi kurashmoq uchun Sharqqa jo'nab ketishga da'vat etdi. Urbanning asosiy da'vati «Iso payg'ambar qabrini» xristianlarga qaytarib olib berish va «muqaddas» Falastinni xalos qilishdan iborat edi. Papa salib qatnashchilarining gunohidan kechishni va'da qildi, shuningdek, u Sharqda salibchilarni kutayotgan boy o'lja haqida ham ochiqdan-ochiq aytdi. Yig'inda qisman fransuz, qisman boshqa mamlakatlardan kelgan minglab ritsarlar hozir bo'ldilar. Feodallarning ko'pdan-ko'p yig'inlarini o'tkazish faqatgina o'zi shu narsani yaqqol ko'rsatadiki, papa bosh ko'tarib chiqmasdan ancha burun ritsarlar orasida keng propaganda olib borilgan va ularning bir qismini Falastinga salib yurishi o'tkazish planidan manfaatdor qilishga ulgurilgan. Papaning bu chiqishi ancha ilgari tayyorgarlik ko'rila boshlagan ishni tashkiliy va ideologiya jihatdan rasmiylashtirishdan iborat bo'ldi, xolos. Salib yurishlarining boshlanishi 1096 yilga to'g'ri keldi. 1096 yilning bahorida Shimoliy va Sharqiy Fransiyaning, qisman G'arbiy Germaniyaning dehqonlar ommasi salib yurishi uchun yo'lga tushdi. Qo'yni puch yong'oqqa to'lg'izilgan dehqonlarga monax Pyotr Amyenskiy (Pyotr Pustinnik) va kichik mulkdor ritsar Valter Golyak boshchilik qildilar. Dehqonlar olomoni yomon uyushtirilgan, naridan-beri qurollantirilgan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlanib turilmas edi. Salibchi dehqonlar tarkibida o'g'irlik va talonchilik qilishdan manfaatdor bo'lgan betayin, sayoq elementlar ham kam emas edi. Bu hol salibchilar «kofirlar» istiqomat qiladigan yrlarga etib

⁴² История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. С.172.

bormasdan oq ma'lum bo'lib qoldi. Jumladan, salibchilar Reyn daryosi bo'yidagi shaharlardan o'tib keta turib, u yerlarda (Kyolnda, Mayntsda va boshqa shaharlarda) talonchiliklar uyushtirdilar. Keyin ular Vena va Bolgariya singari mamlakatlar orqali o'tib, bu yerlarda ham talonchilikni davom ettirdilar. Salibchilar olomoni Konstantinopolga kelib kimgach, imperator ularning tartibsizlik kursatishi va zo'ravonlik qilishidan xavfsirab, ularni Kichik Osiyo sohiliga jo'natib yuborishga shoshildi. Kichik Osiyo sohilida salibchilar olomoni tez orada turk qo'shiniga to'qnash keldi va turklar salibchilarning ko'pchilik qismini qirib tashladi. Shunday qilib, salibchilarning Sharqqa qilgan birinchi yurishi batamom mag'lubiyatga uchradi.

Kapetinglar sulolasi vakillari sharqqa bo'lgan Salib yurishlarining ikkinchisidan boshlab qatnasha boshladilar. Ularning birinchi Lyudovik VII hisoblanadi. Taxtga o'tirgan so'ng bir necha yil o'tgach, 1146 yil Lyudovik VII Ikkinchi Salib yurishida ishtirok etish uchun yo'lga chiqadi. Bu Salib yurishi juda og'ir kechadi: fransuzlar oziq-ovqat yetishmovchiligidan, turklarning harbiy yurishlaridan, yunonlarning dushmanchilik kayfiyatidan aziyat chekkan. Laodikdan Attaliyaga borishda minglab salibchilar turklarning qo'qqisidan uyushtirilgan hujumlaridan, ularning nayzalaridan, yo'ldagi jarliklardan o'tishda otlari bilan qulab ketib halok bo'lgan. Qirolning o'zi baxtli tasodif tufayligina tirik qolgan. Lyudovik dastlab Antioxiyaga, so'ng Tripoliga, undan esa Tirga yetib boradi. Bu yerda u imperator Konrad bilan uchrashadi va 1148 yilda birgalikda Quddusgacha yetib keladi. Quddusni ziyorat qilib, ikki hukmdor kuchlarini birlashtirib, Damashqqa yurish olib borishni rejalashtiradi. Iyul oyida qo'shin Tiveriadadan chiqib, Damashq tekisligiga keladi. Bu yurishda Quddus qirol Bolduin III va Quddus patriarxi Fyulshelar ham ishtirok etgan. Musulmonlar mahalliy hududni yaxshi bilganliklari sababli pistirmalardan xristianlarga doimiy hujumlar uyushtirib turishadi. Shahar hukmdori Otabek Anvar Falastin xristianlari va salibchilari o'rtasida kelib chiqqan nizodan xabar topgach, bu vaziyatdan ustamonlik bilan foydalanadi. Lyudovik VII va Konrad Damashqni egallagandan so'ng, bu viloyatni alohida ajratib, uni Quddus qiroliga berishni xohlamaganliklari

nizoga sabab bo'ladi. Anvar elchilar orqali boy sovg'allar jo'natib, Falastin knyazlari bilan muzokara boshlaydi. Buning natijasida, ular Lyudovik va Konradga soxta ma'lumotlar berib, ularning harbiy yurishlarini qiyinlashtirgan. Salibchilarning Askalonga bo'lgan hujumida esa Quddusdagi yevropaliklar ishtirok etishdan bosh tortadi. Ittifoqchilarning xoinliklaridan so'ng, Konrad va Lyudovik vatanlariga qaytib ketishga qaror qiladi. Konrad va nemislar 1148 yilda, Lyudovik esa tampliyerlarning iltimosiga ko'ra kechroq, 1149 yilda ortga qaytib ketadi. Yo'lda Lyudovik va uning floti vizantiyaliklar tomonidan asir olinadi. Ularni Konstantinopolga qarshi uyushtirilgan normand eskadrasi qutqarib qoladi. Bu voqeadan so'ng, fransuz qiroli va Vizantiya imperatori Manualning munosabatlari yomonlashdi. Keyin 1149 yilda Lyudovik VII vataniga qaytadi⁴³.

Lyudovik VII ning o'gl'i Filipp II Avgust va Genrix II o'g'li Richard I Sheryurak Angliya va Fransiya o'rtasidagi o'zaro urushlarni to'xtatib Salib yurishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi⁴⁴. 1190 yil bahorida ularning armiyasi Burgundiya birlashadi. Ular Liongacha birga borib, u yerda ikkiga ajralish haqida qaror qilishadi. Filipp Genuyada yollanma kemalarga o'tirib, Sitsiliyaga boradi. Sentabrda esa Messinaga keladi. Bu yerda ikki qiroli o'rtasida nizo kelib chiqadi. Richard messinayaliklar bilan urush olib borishga qaror qiladi. Filipp esa dastlab bu urushda ishtirok etmasada, Messina egallangandan so'ng shaharning bir qismi va o'ljalarining yarmini talab qiladi. Olib borilgan say-harakatlar natijasida ikki qiroli o'rtasida boshlanib ketishi mumkin bolgan urushning oldini olinadi. Bu orada ob-havo o'zgarib, Suriyaga bo'lgan urush bahorga qadar to'xtatiladi. 1191 yil martning oxirida Filipp Messinadan Quddus qiroli Gvido tomonidan egallangan Akkonga boradi. Bir necha oydan so'ng yo'l-yo'lakay Vizantiya Kiprini egallagan Richard ham yetib keladi va qirollar o'rtasidagi urush qayta boshlanadi. Filipp o'z xizmatiga o'tgan ritsarlarga uch tanga bergan vaqtda, Richard ularga to'rt tanga xizmat haqi belgilaydi. Bundan tashari, egallangan yerlarning teng ikkiga bo'linishi zarurligini eslatgan Filipp ingliz qirolidani Kiprning bir qismini ham

⁴³ История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М.:1990. С.184.

⁴⁴ Xashimova M.M. O'rta asrlarda Fransiya. Toshkent 2014. 57-bet.

talab qiladi. Richardga esa bu kelishuv faqatgina musulmon yerlariga taalluqli ekanligini aytib, uning talabini bajarishdan bosh tortadi. Ammo bu o'zara nizolarga qaramay, Akkonning qamal qilinishi muvaffaqiyatli tugaydi va 12 iyul kuni shahar egallanadi. Urushni nihoyasi yetkazmasdan Filipp Fransiyaga qaytib kelish istagini bildiradi. Tarixchilar fikricha, o'zining betobligini bahona qilsada, uning o'z vataniga qaytib ketishga asosiy sabab, vafot etgan Flandriya grafi Filippning yerlari uchun merosiy huquqni talab qilishi bo'lgan. Falastinda Gugo Burgundskiy va Genrix Shampanskiy boshchiligida qo'shinning bir qismini qoldirib, u Kichik Osiyo, Gretsiya va u yerdan Italiya orqali Fransiyaga yetib keladi.

Angliya bilan sulh tuzilgach, Lyudovik VIII ning e'tiborini Fransiyaning janubidagi voqealar tortadi. U yerda albigoylar urushi qayta boshlanib, g'alaba yeretiklar va Tuluza grafi Raymond tomonida edi. Salibchilar davlati hukmdori Amori de Manfor egallagan yerlar qo'ldan ketayotganni sezib, Filipp II ning hukmronlik vaqtida oxirgi umid chorasi sifatida fransuz qiroliga harbiy qo'shin ustidan qo'mondonlikni va bosib olingan yerlarga hukmronlik qilishni taklif qiladi. Filipp bu ehtiromga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi va umrining oxiriga qadar bu kurashga aralashmaydi. Undan farqli ravishda Lyudovik VIII o'zini din himoyachisi sifatida urushda ishtirok etishni o'z vazifasi deb biladi. 1224 yilda Simon de Monforning merosxo'ri Amori de Manfor Tuluza grafligi yerlariga bo'lgan Lyudovikka barch huquqlarni topshiradi. 1226 yilda qirol Papa legati (elchisi) qo'lidan xochni qabul qilib, Raymondga qarshi Salib yurishini boshqarishga so'z beradi. "Katolik dinini qutqarish" shiori ostida yozda ko'p sonli fransuz qo'shinlari janubga tomon yo'naltiriladi. Avinon bir necha oy qamal qilingandan so'ng, shahar taslim boladi va salibchilar Tuluzaga boradi. Yo'lda qirol og'ir kasallanadi va ortga Overniga qaytishda vafot etadi.

1244 yilda qirol Lyudovik IX Salib yurishlariga jo'nash uchun xochni o'ziga oladi. Sen-Denida unga rohiblik xalati, kamari va hassasi beriladi. Lionda papadan oq fotixa olgandan so'ng, 1248 yil sentabr oyida Lyudovik IX va boshqa salibchilar bilan birga Kiprga yetib keldi. 1249 yil bahorda fransuzlar Misrga, Damietti yaqinida yaqinida o'rnashdi. 6iyun kuni ular bu shaharni egallaydi.

Harakatlanishda davom etib, Lyudovik IX 1250yilda Mansur shahriga keladi. Lekin salibchilarning kuchlari kamaygan edi. Ortga chikinishda saratsinlar Lyudovikni asirga olishadi. U Domiettani topshirib qutqarildi.1250 yilning may oyida Lyudovik Misrdan qaytadi.Lekin bu vaqtga kelib Yevropa ritsarlari “muqaddas yer” larga bo’ladigan yurishlarga ancha sovuq munosabatda edi. Harbiy yurish 1248 yilning bahorida boshlandi. Avgust oyida pligrimmlar (ziroatchilar) Fransiyaning janubiy portlaridan kemalarga o’tirib sentabr oyi o’rtalarida Kiprga yetib keladi. Qishni shu yerda o’tkazishga qaror qilishadi. Lyudovik IX boshchiligidagi yurish dastlab, Misrga qarshi olib borilishi rejalashtirilgan edi. 1249 yil may oyida 120 ta katta va 1500 ta kichik kemalardan tashkil etilgan armiyada Kiprdan Damietta tomon yo’naltiriladi. Jangga qirolning shaxsan o’zi rahbarlik qilib, qal’ani egallashga muvaffaq bo’ladi. 20 noyabrda ular Qohiraga, 21 dekabrda esa Mansurga yetib keladi. Ikki oydan ortiq davom etgan shiddatli janglardan so’ng Lyudovik o’z qo’shini bilan Damietta ga chekinishga majbur bo’ladi. Chekinish vaqtida og’ir kasallangan qirol musurmonlar tomonidan asir olindi. Olib borilgan muzokaralarda qirolni asirlikdan ozod qilish evaziga salibchilar Damiettani qaytarishlari, boshqa asirlar evaziga esa sakkiz millon frank berilishini talab etildi⁴⁵.

1250 yildan 1254 yilgacha, ya’ni 4 yil Suriyada yangi salibchilarning kelishini kutadi. Lyudovik bu paytda o’zining tasir kuchi bilan Falastindagi xristianlarni qo’llab quvvatlaydi. Osiya mamlakatlari rahbarlari bilan aloqa qilar, Yaffa, Kesariya va Sudanning kuchaytirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Uning shuhrati oshib borardi. Onasining o’limi haqidagi xabarni eshitgach, Lyudovik IX Fransiyaga qaytib keldi. Olti yillik safardan so’ng u davlat ishlarini boshqarishga kirishdi.

Yettinchi salib yurishlaridagi omadsizlik Lyudovikni tushkunlikka solmadi.1270 yil mart oyida Tunisga keldi. U mahalliy sultonni xristianlikka da’vat qildi. Lyudovik Karl Anjuyskiyni kutdi. Shu paytda to’satdan qo’shin tarkibida epidemiya boshlandi. Lyudovikning o’g’li Tristan shu yerda kasallikdan

⁴⁵ Xashimova M.M. O’rta asrlarda Fransiya. Toshkent 2014. 66-bet.

vafot etdi. 3 avgust kuni Lyudovikni o'zi ham kasal bo'lib qoladiva 25 avgust kuni olamdan o'tadi. Shundan so'ng, qirolning o'lik tanasi Karl Anjuyskiy tomonidan Sitsiliyaga olib ketiladi va Monreal ibodatxonasida dafn etiladi. Hozirgi kunda ham Qirol Lyudovik IX ning qoldiqlari solingan xum inig altarida saqlanmoqda. Uning jasadi Sen-Deniga olib ketiladi.

2.2. Rim papalari va fransuz qirollari munosabatlari.

Rim papalari va fransuz qirollari, ayniqsa, Kapetinglar bilan munosabatlari turli xil kechgan bo'lib, turli qirol va davrlarda munosabatlar yo keskin ko'rinish olgan yoki aksincha bo'lgan.

Xususan, ikkinchi Kapeting Robert II shunchalik xudojo'y bo'lganiga qaramay Papa hukumati bilan qattiq bahsda edi⁴⁶. Uning birinchi nikohi, otasining hohishi va tazyiqi ostida, Berengar II Ivreyskiy qizi rozaliya bilan tuzildi. Qirolicha bo'lgandan so'ng u Susanna ismini qabul qildi. Bu ayol eridan yoshi katta bo'lib u Arnulf II Flandrskiy bilan turmush qurib chiqqan va bir nechta bolalari ham bor edi. Otasining o'limidan so'ng Robert birinchi xotini bilan ajrashadi va u Berta Burgundskayaga uylanadi. U Burgundiya qirol Konrad I Tixiyningqizi bo'lib bu unumli nikoh natijasida qirol bir nechta boy va unumli yerlarga ega bo'ldi. Lekin baxtga qarshi, Berta unga shunday qarindoshlik darajasida ediki bu nikoh cherkov qonunlar bilan mumkin emas edi.

Papa Grigoriy V bu nikohni haqiqiy emas deb topdi. Lekin Robert Berta bilan ajrashishni hohlamadi va u bilan yashashni davom ettirdi. Shunda cherkov 998 yilda undan yuz o'girdi. Shunday bo'lishiga qaramay qirol xotiniga sodiq qoladi va

⁴⁶ <http://www.wikipedia.ru/Robert II>.

uni papa va fransuz cherkovidan himoya qiladi. u cherkov va uning jazolariga etibor qilmas edi. Lekin xotining muddatidan oldin ko'zi yorishi uning sadoqatini sindirdi. Robert Berta bilan ajrashib, graf Gilom I Provaniskiy qizi, Konstansiya Arlskayaga uylandi. Robert qanchlik xudojo'y, muruvatli bo'lsa bu ayol shunchalik mag'rur, hokimiyatparastva hasis edi. Boshida u qirolni o'ziga to'liq bo'ysundirib oldi. Lekin ularning xarakterlarining shunchalik qarama-qarshiligiga qaramay ularning o'rtasida shunday munosabatlar paydo bo'ldiki, Robert ikki tamonlama yashardi. U papadan Berta bilan yana qo'shilishiga ruxsat olishga harakat qilardi.

Filipp I investitura huquqidan keng foydalanardi. Chunki bu unga yaxshi daromad keltirardi. 1073-1074 yillarda Papa Grigoriy VII Filipp bilan zamondoshi, German imperatori Genrix IV singari papa bilan munosabati yomon edi. Bunga sabab, qirol yigirma yil davomida nikohida bo'lgan rafiqasi bilan ajrashib, Anju grafining rafiqasi Bertrada bilan turmush qurgani bo'ladi. Anju grafi Fulk, Flandriya graflari bilan itiffoq tuzib, qirolga qarshi urush boshlaydi. Fransuz ruhoniylari ham bu nikohni ham tan olmagan, hatto Papa Urban II qirolini bir necha bor cherkovdan chetlashtirgan. Filippning papa bilan munosabatlari shu nikoh tufayli umrining oxiriga qadar yomon bo'lib qoladi⁴⁷.

Lyudovik VI Genrix I Angliyskiy bilan 1119 yilda Bremyul yaqinida bo'lgan urushda Lyudovik katta yo'qotishlar bilan bo'lsada, bahsli viloyatlarni saqlab qoldi. Lyudovikning Papa Kalikst II ning yonini olgani sababli Germaniya bilan urush yuzaga keldi. Angliya qirolini Genrix I qizi Matildaga uylangan german imperatori Genrix V ingliz qirolini bilan birgalikda 1124 yilda Lyudovikka qarshi urush e'lon qiladi. Lyudovik fransuzlarning milliy g'ururini himoyalashga da'vat etadi. Natijada fransuz vassallari o'z qo'shinlarini olib kelishadi va Genrix ortga chekinishga majbur bo'ldi.

Filipp II Avgust Falastindan qaytib kelgach, 1193 yil avgust oyida boy va qudratli Daniya qirolini Knut VI singlisiga uylandi. Ammo ko'p o'tmay bu nigoh bekor qilinishi qirolning papa bilan munosabatlarning yomonlashuviga sabab

⁴⁷ Лозинский С.Г. История папства. М., 1986 г. С.97.

bo'ladi. Papa Innokentiy III 1194 yilda Fransiyaga interdikt e'lon qildi va bir necha marta olib borilgan muzokaralar natijasida la'natlanish 1213 yilda bekor qilinadi. 1194 yilda Angliya bilan olti yil davom etgan urush boshlanib katta talofatlardan tashqari hech qanday natijaga olib kelmaydi. Filipp qirol xazinasini to'ldirish maqsadida yangi-yangi soliqlar joriy qilish bilan birga katta mol-mulk sohiblari bo'lgan yahudiylarni mamlakatdan haydab chiqarib, katta pul evaziga qaytib kelishga ruxsat beradi. Nihoyat papa Selistinning yangi salb yurishlarini rejalashtirishi bahonasida ingliz va fransuz qirollari 1199 yilda uchrashib tinchlik sulhini tuzadi.

1200 yilda may oyida ingliz va fransuzlar o'rtasida tinchlik sulhi imzolandi. Sulhga ko'ra Ioann Filippga katta miqdorda pul beradi. Ammo bu sulh uzoq davom etmaydi va 1202 yilda Filipp tomonidan shartnoma bekor qilingan. Fransuz qirollari kelajakda egallangan yerlarni o'z qo'lida saqlab turish maqsadida Rim papasi bilan yarashadi, mamlakatdagi ichki nizolarga chek qo'yadi.

Lyudovik IX Muqaddas Fransiyani Rimdan qattiq himoya qilardi. Fransuz dindorlari papa hokimiyatidan ko'ra mahalliy hokimiyat manfaatlari va Lyudovik tamonda turar edi. 1269 yil mart oyida Lyudovik "Pragmatik sanksiyani" e'lon qildi. Bu orqali fransuz cherkovining Rimdan mustaqilligi e'lon qilib, Rim uchun yig'iladigan har qanday pul yig'implari va soliqlarini bekor qildi. Fridrix II va Innokentiy IV larning kurashi paytida Lyudovik papa harakatlarini qoralagan.

Filipp IIIning Ispaniyada o'z manfaatlari ham borligi tufayli, 1275 yilda u Navarrani Kastiliya va Aragon qirollari hujumlaridansaqlab qoldi. Lekin Alfonso X Kastilskiyning turmushga chiqqan fransuz malikasining eri o'limidan so'ng (1276) barcha huquqlaridan mahrum bo'lishiga qarshi Filippning uni yonini olishiko'zlangan maqsadlarga olib kelmadi. Sitsiliyadagi uchrashuvdan so'ng, Karl Anjuyskiy tomonidan davlat qilingan Aragon ekspiditsiyasi hamomadsizlik bilan yakunlandi. Papa Martin IV, Karl va Filippga sodiq bo'ladi. U Pedro Aragonskiy nicherkovdan ajratib, uni taxtga noloqi qilib e'lon qiladi va o'rniga Filippning o'g'illaridan birinini tayinlaydi. Bu ekspiditsiyasi amalga oshirilishi mo'ljallangan fransuz qo'shinlariva flotiomadsizlikka uchraydi. Flot ikki marta

mag'lubiyatga uchraydi. Qurolli qo'shinlar Gerona qal'asiniishg'ol qilishdaushlanib qolishadi va kasallik qurboniga aylanishadi. Filipp ham kasallikka chalinadi va ortga chekinish paytida vafot etadi⁴⁸.

Filipp IV Chiroyli hukmronligining yirik voqealaridan uning diplomatik talant va tayanchi qo'yilgan maqsadlarining muvaffaqiyatlaridan biri qirolning papa Bonifatsiy VIII bilan to'qnashuvi bo'ldi⁴⁹. 76 yoshli Bonifatsiy VIII 1294 yilda papa etib saylandi. U takkabbur qariya bo'lib, cheksiz energiyasi va tiyiqsiz qaysarliklari bilan mashhur bo'lgan. Bu xislatlar unda yillar davomida jilovlanadi. Petrarka u haqda yozib, u ko'proq "qat'iy hokim" qirolni yakson qilish imkoni yo'qligidan popugini pasaytirish maqsadida xushomad yo'lga o'tgan edi, deydi. Bonifatsiy VIII davrida papalikning so'nggi marta notavonlikka tushishi, oddiy qilib aytganda "bobil asirligiga" tushishiga sabab qirol hokimiyatiningmustahkam kuchlari bilan kuch sinab ko'rishi va bu kurashda hal qiluvchi zarbaga duchor bo'lshidir. Bonifatsiy VIII pontifikatligining birinchi yillarida Filipp IV Chiroyliga do'stona munosabatda edi. Biroq bu munosabatlar sof moliyaviy masalalar sababli buzildi. Filipp IV Chiroyli Bonifatsiy VIII bilan konflikti fransuz ruhoniylariga favqulodda soliqdan boshlandi. Bu soliq salib yurishi uchun olinsada, biroq Filipp IV Chiroyli undan o'zi foydalandi. 1296 yilning kuzida Bonifatsiy VIII "*Clericis laicos*" bullasini chiqarib miriyalarga to'lanadigan haqni bundan keyin Rimga to'lashini aytdi. Dunyoviy hukmronlikdan chetlashtirish xavfi ostida ruhoniylardan soliq olinmasligi, ruhoniylar esa papa ruxsatisiz soliq to'lashi ta'qiqlandi. Bullaga javoban Filipp IV Chiroyli Fransiyadan oltin va kumush chiqishni ta'qiqladi. 1300 yilda Fransiya va Rim o'rtasidagi munosabatlar keskin harakterda bo'ldi. Bonifatsiy VIII Filipp IV Chiroyliga maxsus elchi sifatida yepiskop Pamerskiy Bernar Sessetini yubordi va unga favqulodda ishlar yuklatildi. U Langedokda qaysidir partiyaning vakili bo'lib, fransuzlarni ko'ra olmas edi. Qirol unga qarshi sudni talab qildi. Yepiskop qirolga suiqasd qilishda ayblandi. Papa (1301 yil dekabrda) qirol ayblovini o'z sudida ko'rib chiqishni talab qildi. Shu vaqtda u

⁴⁸ Лозинский С.Г. История папства. М., 1986 г. с.99.

⁴⁹ Мусский И.А. 100 великих дипломатов. Москва. с.93.

qirolga bulla yuborib (Ausculta fili), papa hokimiyatning barchaning ustidan hukmronligi ta'kidlab o'tdi. 1302 yil aprelda Filipp General shtatlarni tuzdi. Dvoryanlar va shahar vakillari buni qo'llab quvvatladi. Diniylar esa soborga ketdi. Bonifatsiy VIII rozi bo'lmaganidan ular Rimga bormadi. 1302yilda tuzilgan soborda "Unam Sanctam" bullasida papa dunyoviy hokimiyat ustidan supermatiyasi haqida aytdi. Biroq qirol esa bunga javoban yuqori diniy shaxslar va dunyoviy voryanlar majsilini chaqirdi. UlardaFilipp odami Nagore papani aybladi. Bundan so'ng, Nagore Italiyaga yuborildi.Uning zimmasiga kuchli kengaytirilgan vazisa yuklatilib, Papani qamoqqa olish buyurildi. Papa bu paytda Ananga ketgan edi. Ular bu yerda katta buzg'unchiliklarni amalga oshirdi. Ikki kundan so'ng aholining kayfiyati o'zgardi vaular papani ozod qildilar. Shundan so'ng, u vafot etdi. O'n oydan so'ng uning vorisi Bonifatsiy IX vafot etdi. 1304yilda saylangan yangi papa Kliment V (to'qqiz oylik saylov kurashudan so'ng) o'z rezidensiyasini Avinionga ko'chirdi. U hech qanday hokimiyatiga ega emas edi. Bu Filipp IV Chiroylining orzusi edi. U azaldan Tampliyerlar ordening katta boyligini qo'lga olishni xohlagan edi. 1307 yil Nagore ularni qamoqqa olib ularga qarshi jarayon boshladi. Jarayonda dunyoviy hukmdorlardan tashqari, yana invizatorlar ham qatnashdi.Jarayon bir yilga cho'zildi. Klement V zaif ritsarlarni o'ylab ko'rdi, biroq qirol ularni sudga berdi. Ordenning ko'plab a'zolarini yoqishga qaror chiqardi. 1311 yilda orden tugatildi. Filipp IV Chiroyli ularning deyarli barcha mulklariga ega bo'ldi. Umuman Kliment V faqat qirol xohlaganidek ishladi. Uning yodi ustidan sudga rozilik berdi. Qirol o'tgan papani shakkolikda aybladi. Sud ham buni tasdiqladiva Bonifatsiy VIII ni aybladi. Bu jarayon va tampliyerlar ishi shuni yorqin ko'rsatdiki, papalik Filipp IV Chiroyliga umuman qarshilik ko'rsata olmadi.

2.3. Mo'g'il xonlari bilan bo'lgan diplomatik aloqalar.

Fransiya mo'g'illar bilan diplomatik aloqalarni birinchi bor Lyudovik IX davridan o'rnatishni boshlagan. Plano Karpini sharqdagi sayohatdan qaytganidan bir nechayil o'tib, g'arbdan yana Markaziy Osiyoga – mo'g'ullarning ulug' xoni huzurigayangi monaxlardan, ammo manorit ordeni a'zolaridan iborat elchilik yuborildi⁵⁰. Bu safarga elchilik oldiga oldingisidan biroz farqli vazifalar yuklatildi. Ular mo'g'ullar orasida xristianlikni targ'ib qilish barobarida, mo'g'ullar bilan islom o'lkalariga uyushtirilishga qaratilgan salib yurishlari uchun ittifoq tuzish imkonyaiti haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim edi. Chunki elchilik yuborilayotgan vaqtda g'arb salibchilarining ishi orqaga ketib, Fransiya qirol Lyudovik IX 1248 yilgi oltinchi salib yurishida, Mansur yaqinidagi mag'lubiyatga uchragan edi. Bu mag'lubiyatdan so'ng qirol raqiblar qo'lida uzoq vaqtlar asirda qolib ketadi, Asirlikdan katta miqdordagi to'lov evaziga ozod bo'lgan Lyudovik IX da borgan sari kuchli qarshilik ko'rsatayotgan musulmon davlatlariga qarshi urush olib borishning boshqa choralarini izlab topish niyati paydo bo'ldi. Ana shunday imkoniyatlardan biri bu urushga mo'g'ullarni ittifoqchi sifatida jalb qilish edi. Bu

⁵⁰ Xashimova M.M., Gadayev H.U., Usarov S.R. O'rta asrlar diplomatiyasi va xalqaro munosabatlar tarixi. Toshkent 2013. 56-bet.

rejasini amalga oshirish uchun fransuz qiroli Lyudovik IX Mo`g`ulistonga maxsus diplomatik missiya yubordi. Bu missiyaning rahbarligiga o`ziga yaxshi tanish bo`lgan, oltinchi salib yurishining ishtirokchisi, g`ayratli, keng savod egasi va aqlli bo`lgan manorit – monax Gil`om Rubrukni tayinladi. Vil`gelm Rubruk, asli flamand urug`laridan chiqqan, ko`proq Giyom Rubruk nomi bilan tanilgan. Uning tarjimai holi haqida ma`lumotlar juda kam. Xatto sayohatchining familiyasi ham yagona formada saqalib qolmagan, turli adabiyotlarda familiyaning 11 xil o`zgargan shakli qo`llanilgan (de Rubruk, de Rubruck, de Rubruc, Risbrouc va boshqa nomlar uchraydi). Uning taxallusi yoki familiyasi bo`lgan «Rubruk» Flandriyadagi bir qishloq nomidan olingan, aftidan uning o`zi ham shu qishloqda tug`ilgan bo`lishi kerak. Uzoq vaqtlar tarixiy adabiyotlarda familiyaning lotinlashgan varianti «Rubrukvis» ishlatilib kelingan. Uning haqiqiy ismi Vil`gelmyoki Gil`om bo`lib, bu ham flandmand ismining frantsuzlashgan shakli hisoblanadi. Uzoq yillar sharqda - Falastinda bo`lgan, yettinchi salib yurishida ishtirok etgan. Fransuzlar bilan janglarda ishtirok etish natijasida tarixchilar uning o`zini ham «frantsuzlashgan» deb hisoblashdi. Uning elchi sifatida tanilishi bekorga emas edi. O`tkir aql idrok sohibi bo`lgan Rubrukda kuzatuvchanlik, vaziyatga baho berish kabi hislatlari ham mujassam bo`lgan, qolaversa elchi sifatida yuborilgan vaqtda 35- 40 yoshlarda ayni kuchga to`lgan, mustahkam sog`liqqa ega va qa`tyatli kishi sifatida namoyon bo`ldi. Ordenning qat`iy qoidalaridan safar chog`ida ham chekinmagan Rubruk hatto uzoq sharqning ayozlari qish kunlarida yalang oyog`ida (Chunki orden qashshoqlar ordeni bo`lib, har qanday qo`shimcha mablag` talab qiluvchi holatlardan voz kechishni targ`ib qilar edi) yurgan. Rubruk hayoti to`g`risida ma`lumotlar kam bo`lishiga qaramasdan, u o`z davrining mashhur kishilari bilan uchrasha olganligi u bilan suhbatda bo`lgan kishilar qayd qilib o`tadi. Ulardan biri ingliz olimi Rojer Bekon bo`lib, Rubruk bilan Parijda tanishgan edi. Bekonning tan olishicha u o`z hohishi bilan Rubrukning kitobini o`qib chiqqan. U kitobda keltirilgan ma`lumotlarni o`zining geografiya sohasidagi va Markaziy Osiyoning shu davrdagi holati to`g`risidagi ma`lumotlarida foydalangan. Bekonning asarini Rubrukning asari bilan solishtirganda «Opus

Majus» ning ko`rsatilgan qismlaridagi ingliz olimi tomonidan qo`llanilgan terminologiyasi materiallariga bizning sayohatchining hisobotlari asos bo`lib xizmat qilgan deyish mumkin. Rubruk Fransiya qiroli Lyudovik IX va uning onasi o`z davrining eng savodli ayollaridan biri bo`lgan Blanka Kastil'skayalar bilan yaqin aloqada bo`lgan. Uning qirollik oilasiga yaqinligini malika Margarita tomonidan o`ziga taqdim etilgan ajoyib miniaturalar bilan bezatilgan psaltir guvohlik berib turibdi. Rubruk bir necha marta bu sovg'a haqida eslatib o`tadi. Rubruk Fransiya qiroli Lyudovik IX ni oltinchi salib yurishlarida kuzatib borgan va shuni ta`kidlash mumkinki fransuz qirolining huzuriga kelgan mo`g`ul qo`mondoni Ilchigidayning elchilarini ko`rgan⁵¹. O`sha yerdaligida 1249yilda Mo`g`ulistonga Andre Lonjyumo elchiligi yuborilgan, zero bu elchilik to`g`risida Rubruk bir necha marta qayd etib o`tgan. Rubruk shuningdek, taxminan Sezariyada uchrashgan Filippe de Tusiy haqida ham eslatib o`tadi. Bu kishi o`ziga xos inson bo`lib, aristokrat va salibchi, ayni vaqtda siyosiy maqsadalar uchun koman (polovets - qipchoq) malikasiga uylangan va qipchoqlar hayotidan yaxshigina xabardor edi. Filippe bir qancha ritsarlar hamroxligida imperator Bolduin II tomonidan qipchoqlar xoni huzuriga elchi qilib yuborilgan. Bu insondan Rubruk Dashti – Qipchoqdan o`tuvchi yo`llar haqida ma`lumot olgan bo`lsa kerak. Rubruk missiyasi besh kishidan iborat bo`lgan: Rubruk, fransiskan Bartolomeo Kremonlik, yosh klirik Giyom Gosse yoki Gossel', tarjimon "homo dei" (xudo odami) va Rubruk tomonidan Konstantinopolda sotib olingan Nikolay ismli bola. Lyudovik IX ning Sartakka maktubida musulmonlarga qarshi birgalikda kurash haqida hech narsa deyilmagan deb ko`rsatilsada, lekin fransuz qiroli Sartakdan uning o`lkasida missionerlik faoliyati bilan shug`ullanishini so`ragani aytiladi. Sayohatga chiqishdan oldin Rubruk aftidan, bir necha yillar Yaqin Sharqda bo`lgan. U Akkonda (Falastindagi shahar Akka, Akra bo`lsa kerak) bo`lgan chog`ida elchi bo`lib tayinlanganligini to`g`risida xabar oldi. Aynan shu shahardan u olim Mo`g`ulistonga uyushtirilajak sayohatini boshladi. Rubruk sayohatidan oldin mo`g`ullar yurtiga o`zining kim tomonidan yuborilganligini yashirib, o`z xohishi

⁵¹ История дипломатии. Под редакцией В.А.Зорина. Москва. Госполитиздат. 1959 г. с.156.

qolaversa, frantsiskan diniy-gadoylik ordeni istagi bilan borayotganligini ommaga ma`lum qilgan edi. Rubruk boshchiligidagi elchilar «Muqaddas Yer» dan dengiz orqali Konstantinopolga, u yerdan Qrimga yo`nalish oladi. Konstantinopolga etgan vaqtidayoq Rubrukning fransuz qiroli Lyudovik IX ning elchisi sifatida mo`g`ullar huzuriga yuborilayotganligi to`g`risida ovozarlar tarqalgan edi. Shu boisdan ham u rasman o`zining elchi ekanligini rad etdi. Akka shahridan yo`lga chiqqan elchilar 1253 yilning bahorida Konstantinopolga yetib kelishgan. Imperator Bolduin II dan taviya maktubini olgandan keyin 7- mayda Konstantinopoldan Qora dengiz orqali yo`lga chiqdi. Ikki haftalik suzish davomida Rubruk mohir dengizchi va savdogarlar orqali Qora dengiz haqida to`liq tasavvurga ega bo`ladi. Qrim yarim orolining janubiy sohillarida joylashgan Saldaya (Sudak) portiga yetib keldi. 1253 yil 21 mayda Soldayyu (Sudak) shahriga yetib kelgan Rubruk (bu shahar mo`g`ullar hukmronligidagi ilk shaharligini qayd etadi) shahar boshlig`iga ovozalarga ko`ra xristianlikni qabul qilgan Botuning o`g`li Sartak bilan uchrashish niyatini bilan kelganligini bayon qiladi. Shahar boshlig`i elchilarning bu gapiga ishonib, ularni yepiskoplik xristian cherkoviga olib boradi. Soldayadan 1 iyunda usti yopiq to`rt xo`kizli arava sotib olgnai unda (ruslar shu kabi aravalarda odatda mo`yna tashiganlar deb ko`rsatiladi) Qrim yarimorolining ichkarisiga – Sartak qarorgohiga qarab yo`l olganlar. Oradan 3 kun o`tib ular mo`g`ul askarlariga duch keladi va askarlar boshlig`i Rubruk boshliq elchilarni Sartak o`rdasiga yuboradi. Rubrukning qayd etishicha «Soldayudan Sartak o`rdasiga bo`lgan ikki oylik yo`l davomida yo`lning hech qayerida na bir qishloqcha na va xatto ularning qoldiqlarini ham , komanlarning (qipchoqlar) ko`p sonli qablardan tashqari, o`zga biror narsa ko`rmaganlar». Bu paytda Sartak o`rdasi etil (Volga) daryosining g`arbiy qirg`og`ida joylashgan edi. Sartak huzuriga kelganda uning o`toviga elchilar cherkov kiyimida, Injil va psaltir tutgan holda kirishgan va Rubrukvis o`zining xaqiqiy maqsadini oshkor etib, Sartakga fransuz qirolining yorlig`ini taqdim etadi. Yorliqdagi fikrlarning tarjimasini eshitib, elchilardan sovg`a tariqasida non, vino va mevalar olgan, Sartak ularni Botu huzuriga yuboradi, yo`l davomida Volganing kattaligidan elchilar xayratga tushadi. Ularning ko`z o`ngida

daryo Parijdan oqib o'tuvchi Senadan to'rt marta kattaroq ko'ringan. Botu xuzurida Sartakdan ko'ra suxbatlar va maqsadlar aniqlashadi. Botuning nima maqsadda kelganligi to'g'risidagi savolga Rubrik quyidagicha javob qaytardi. «Biz xristian deb eshitgan o'g'lingiz oldiga bordik va unga janob Franklar qirolining yorlig'ini topshirdik. Uning o'zi bizlarni sizning huzuringizga yubordi. Siz buning sababini bilishingiz kerak». Botu huzuriga kelgunga qadar mo'g'ullarga Lyudovik IX ning qo'shin tortib Fransiyadan chiqqanligi ovozalari etib kelgan edi. Botuning frantsuz qirolini kimga qarshi urush qilmoqchi degan savoliga Rubruk Ierusalimdagi xudo uyini tahqiriyotgan saratsinlarga qarshi deb javob beradi. Rubrukvis boshchiligida elchilar jo'natdi. Rubrukvis boshchiligidagi elchilarning marshrut yo'nalishi Karpining marshurut yo'nalishiga taxminan to'g'ri keladi. 8 avgustda ular Etiliya (Itil, Volganing asosiy irmog'i) deb ataluvchi, o'zlarining tarifida to'rtta yirik daryoning uchinchisidan o'tadi. Yoyiq (Ural) daryosidan o'tganidan 31 kun o'tib Rubruk Sirdaryo havzasi hududlariga yetib keldi. Tez orada sayohatchi elchilar bog' kabi sug'oriladigan tog'bo'yi tekisligiga etib kelib, erlarning odamlar o'rtasida taqsimlanganligiga e'tibor qaratishdi. Bu ayni 6yil oldin biroz janubroqdan Plano Karpini o'tgan Bisermentlar (Xorazmshoxlar davlati- Musulmonlar degani) qirolligi hududlaridagi manzillar edi. Shu yerdan janubiy sharqqa qarab yo'nalish. Undan so'ng etti kun davomida ular tog' yo'li bilan harakat qilishgan. 1253 yil 8 noyabrda Rubruk Kinchat deb ataluvchi saratsinlar shaxriga yetib keladi, shu nom bilan butun unga tutashib ketgan hududlar shu nomni bilan atalgan. Bir necha kun o'tgach Rubruk Plano Karpini Mo'g'ulistonga borgan yo'lga chiqadi. Shimoliy – sharqqa tomon yo'llarini o'zgartirgan sayohatchilar qoraxitoylar yeriga yetib kelishgan. Ularning chap tomonidan doimo qandaydir suvning shovqini eshitilib turgan. Bu Balxash ko'li bo'lib, sayyohlar borishda ko'lining janubiy tomonidan, qaytishda shimoliy tarafidan o'tishgan. Elchichilar 1253 yil 26 dekabrda «atrofda hech qanday tog'lar ko'rinmaydigan xuddi dengizday tekis» Mo'g'ulistonga etib kelishdi. Shu erda bir necha kunlik to'xtalishdan keyin elchilarga Qoraqurum shaxridagi Mangu-xon saroyiga kirishga ruhsat berildi. Bir paytlar to'rt tomondan devorlar bilan o'ralgan

va har bir tomonda darvozaga ega bo`lgan bu shaharga Plano Karpini kiritilmagan edi. Shaharda ikki musulmon masjidi bilan birga xristianlar ibodatxonasi borligini ham qayd etib o`tadi Vilgelm Rubruk⁵². To elchilar kelguniga qadar ulug' – xon xuzuriga Botu choparlari kelib, elchilarning Sartak huzuriga kelgan kelganligini va uni saratsinlarga qarshi kurashda fransuz qiroli undan yordam kutayotganligi haqidagi xabarni yetkazgan edi. Bu xabarni eshitgan Rubruk qattiq junbushga keldi: uning fikricha qirol maktubida Botu aytgan gaplar keltirilmagan edi. Shunday bo`lsa ham ochiqdan – ochiq Botuning ma`lumoti rad qilishga qaror qilmadi va atrofdagilarga xristianlikni targ'ib etish maqsadi bilan kelganligini tushuntirishga harakat qildi. Mangu-xon bu vaqtda Qoraqurumning o`zida bo`lmay shahar tashqarisiga chiqib ketgan edi. Rubruk ulug' – xon huzuriga kirish uchun qish oylari bo`lishiga qaramasdan orden tartib – qoidalariga muvofiq yalang oyoqda xon o`rnashgan xududga borishga majbur bo`ldi. Mo`g'ullar elchilarni ulug' – xon xuzuriga olib kirishganda, elchilar o`rtacha gavdali, divanda yotgan va tyulen terisiday tovlanib turuvchi mo`ynadan kiyim kiygan Munkaxonni ko`rishdi. Munka – xon atrofida turli tuman sayroqi qushlar joylashtirilgan edi. Elchilarga lutf ko`rsatgan xon ularga turli ichimliklarni – aroqni, qimiz va vinoni taklif qiladi. Ammo orden tartibiga muvofiq kelmasligi sababli ular bundan bosh tortishgan, xonning o`zi bo`lsa bu ichimliklar ta`sirida bo`lishi natijasida tezda qabul to`xtatilgan. Shuni aytish kerakki, bir vaqtlar Chingizxon tomonidan belgilangan ichkilikka qarshi tartibga ko`ra, oyda uch marta ichish ma`qul topilgan edi. Agar uch martadan oshib ketsa aybdor, ikki marta bo`lsa yaxshi, bir matra bo`lsa yana ham yaxshi, umuman ichilmasa bundan yaxshisi yo`q deb belgilangan edi. Ammo undan keyingi vorislar bu amalni ado etmaganlar. Munka xon ham ko`p xollarda alkogolik ichimliklarga moyil bo`lgan uning bu salbiy jihatini orden manfaatiga zid bo`lganligi bois umuman alkogolik ichimliklar iste`mol qilmaydigan rohib – elchilar ham qayd qilib o`tishgan. Deyarli yarim yilga yaqin vaqt mobaynida, g'arbiy elchilar xon Qoraqurumda va xonning shahar tashqarisidagi qarorgohida

⁵² Христианский мир и великая монгольская империя. // Материалы францисканской миссии 1245 г. М., 2002 г.

bo`lib, shu davr ichida Mangu-xon bilan bir necha marta uchrashib suhbatlar quradi. XIII asrning 50 yillaridan e`tiboran mo`g`ullarda shomonlikdan boshqa e`tiqotlar ham kuchaya boshlagan. Rubrukning xotiralarida keltirilishicha, o`sha vaqtlarda Mangu-xon o`z o`rdasi turli diniy e`tiqoddagi ruhoniylarning o`z dinlari xaqligi bo`yicha baxs-munozarasini uyushtirgan. Xon tomonidan munozaraning bir sharti sifatida o`zgalar shahsini kamsitishni darra jazosi bilan jazolanishi belgilangan. Boshqa tarixiy ma`lumotlarning yo`qligi sabab bunday baxs uyushtirilganligi xaqida, bo`lgan yoki bo`lmaganligini aytish qiyin. Qolaversa, Rubrukvis xristian targ`ibotchisi sifatida (Chunki u birinchi navbatda diniy – qashshoqlik ordeni a`zosi edi) shunday munozarani o`ylab topgan bo`lishi mumkin. Chunki bu bahsda ko`proq o`zining qo`li - xristian dinining ustun kelganligini bir necha bor o`z esdaliklarida ko`rsatib o`tgan. Mangu – xon huzuridaligi vaqtida Rubruk mo`g`ullarning hayoti va odatlari to`g`rsida ko`pdan – ko`p ma`lumotlarni oldi. Shuningdek, mo`g`ullarning boshqa xalqlar bilan munosabatlarini ham o`rgana oldi. Bu erda xon qarorgohi uchun ishlayotgan nemis va fransuz asirlarini uchratdi, ular bilan suxbat qurishga musharraf bo`ldi. Ayniqsa uning mo`g`ullarning bosh shahri bo`lgan Qoraqurum haqidagi ma`lumotlari shaharning to`la hayoti haqida tasavvur bera oldi. Rubrukni lol qoldirgan narsa, bu shaharda aholining zich joylashganligi edi. Biroq shahar binolaridek elchilar ko`zi o`rgangan Yevropadagi kabi shahar binolari bir – biriga tekis joylashmasdan, balki mahalliy xo`jalik sharoitidan kelib chiqib, ko`chalar va maydonlar asosan chorvani olib o`tish uchun keng qilib qurilgan. Shuningdek u shahar haqida quyidagi taqqoslashni ham berib o`tgan: “Qoraqurum shahri, saroyni hisobga olmaganda, hatto Muqaddas Dionosiya monastiri joylashgan shaxarchadan (Parijda) kichikroq. Dionosiya monastirining o`zi xon saroyidan kattaroqdir. Shaharda ikkita kvartal mavjud: birinchisi saratsinlarga tegishli bo`lib, u yerda bozor joylashgan, saroyga yaqinbo`lganligi bois saroydagi odamlar va elchilar tez – tez shu yerda bo`lib turishadi. Ikkinchisi xitoyliklar kvartali bo`lib, u yerda faqat hunarmandlar bor. Shaharda turli xalqlarning o`n ikki muqaddas (kumir) inshootlari joylashgan, musulmonlarning ikki masjidi, bitta xristianlar cherkovi. Shaharning sharqiy

burchagida bug'doy va boshqa donli ekinlar sotiladi, ammo kamdan – kam hollarda bu mahsulotlar keltiriladi, g'arbiy chekkasida qo'y va echkilar, janubiy tarafida ho'kiz va aravalar, shimoliy tomonida otlar bilan savdo – sotiq qilinadi"⁵³.1254yil iyulida Mangu-xon Rubrukni javob xati bilan orqaga qaytarishga qaror qildi. Xon Rubruk bilan o'zining ikki kishisini yevropaga yubormoqchi bo'ladi. Lekin Karpini singari Rubruk ham turli yo'llarda o'tish chog'ida xon elchilari hayotiga javob bera olmasligi vaji bilan o'zlari birga olib keta olmasligini ma'lum qiladi. Xon maktubining asosiy mazmuniga ko'ra, Lyudovik IX va boshqa Yevropa davlatlari hukmdorlari bilan tinchlik aloqalari ularning mo'g'ul xoniga bo'ysunish sharti bilan o'rnatilishi nazarda tutilgan edi. 1254 yilning 6iyunida Qoraqurumni tark etgan elchilar o'zgarmas marshrut bo'yicha Botu qarorgohi tomon harakat boshlagan. Rubrukning hamrohlaridan biri italyan rohibi Bartolomeu (Kremonlik) shu yerdagi mahalliy xristian cherkovida qoldi.Botuning huzurida ulug' – xon maktubi so'nggi taxrirdan o'tishi lozim edi. 1254 yilning 16 sentyabrda o'z borish yo'nalishi bo'yicha deyarli o'zgarmas marshrut orqali Botu qarorgohiga qaytib kelgan, sayohatchi-elchilar bu yerdan Qrimga emas, janubga Kaspiy dengizi tomon, unga tutashib ketgan Buyuk Armanistonga yo'l oldilar. U yerdan g'arbga yurib Araksuning yuqori oqimidan o'tib, Dahfn daryosida suzib O'rta Yer dengizi havzasidagi, Kipr orolining qarama - qarshi tarafida bo'lgan Kichik Armaniston sarhadlariga yetib kelishadi. Shu yerdan rohiblar dengiz orqali Suriyaga borishadi. Rubrukning hisobiga ko'ra, Lyudovik IX bu vaqtda o'zining salibchilar qo'shini bilan Suriyada bo'lishi kerak edi. (Lekin qirol bu shaharda bo'lmaydi, chunki yettinchi salib yurishini boshlagan fransuz qirol muvafaqqiyatsizlikka uchragan edi). Rubruk elchilik sayohati 1255 yil 29 iyunda Antioxioga safari bilan tugaydi. Nihoyat, 1255yilning avgustida Rubruk o'zining monastiriga qaytib keldi. Plano Karpini va Vilgelm Rubrukning sayohatlari natijasida Yevropa birinchi marta tatarlar – mo'g'ullar bilan tanishdi desak bo'ladi⁵⁴. Chunki garchi Yevropagacha mo'g'ullar dahshati yetib kelgan

⁵³ История дипломатии. Под редак. В.П.Потемкина. Москва. 1941 г. С.189.

⁵⁴ Xashimova M.M., Gadayev H.U., Usarov S.R. O'rta asrlar diplomatiyasi va xalqaro munosabatlar tarixi. Toshkent 2013. 59-bet.

bo`lishiga qaramasdan, ammo g`arbning aksariyat aholisi ular haqida bevosita tushunchaga ega emas edilar. Karpini ko`proq masalaga ob`yektiv yondoshishga harakat qilgani holda mo`g`ullarning salbiy tomonlarini ham (o`z nuqtai – nazaridan baho berib) ko`rsatib o`tadi. Uning fikricha mo`g`ullar o`z yurtida osoishta hayot kechirishadi, urushmaydilar, janjal qilmaydilar, bir – birini hurmat qilishadi. Ular sabr – matonat soghiblari va quvnoq kishilardir. Ular o`z xukmdorlarini shu qadar hurmat qilishadiki, na so`zda va na amalda unga yolg`on ko`rsatmaydi. Shu bilan birga mo`g`ularda boshqa yurtlarga hujum qilish, odamlarni o`ldirish kabi salbiy jihatlar gunoh sanalmasligini ham alohida e`tiborga oladi⁵⁵. Karpini va Rubruk sayohat xotiralarini solishtiradigan bo`lsak, har bir asar o`ziga hos tomonlarini qamrab olganligini ko`rish mumkin. Karpini o`z e`tiborini mo`g`ullar haqidagi tarixiy ma`lumotlarga va ularning harbiy – siyosiy hayotiga ko`proq qaratgan bo`lsa, fransuz qirolining elchisi sifatida tashrif buyurgan Rubruk masalaga sal o`zgacha yondoshib, ko`proq geografik ma`lumotlar hamda mo`g`ullarning diniy – ma`ishiy hayotini yoritishga harakat qilgan. Garchi har ikki kitob ham olis Mo`g`uliston sayohati natijasida yozilgan bo`lishiga qaramasdan, deyarli bir – birini takrorlamaydi. Aksincha bir – birini to`ldiradi. Plano Karbini va Rubrukvis elchiligidan so`ng G`arbdan Sharq mamlakatlariga yana ko`plab sayyoh – elchilar kelishdi: Morko Polo, Odorik de Pordenone (Odorix Pordenavskiy). Bularning nomi bilan endi boshqa dunyo va boshqa davrni uchratamiz: bu kishilarning maqsadi va sayohat xarakteri ham mutloqo o`zgacha edi. Ular shunday paydo bo`lgan elchi – mehmonlar bo`lmasdan, o`z hayotining aksariyat qismini Sharqda, mo`g`ullar huzurida o`tkazgan savdogar va xristian dini targ`ibotchilari edi. Bulardan yana ham keyingroq yollanma askar Shil`tberger va ispan qirol elchisi Rui Gonzales de Klavixo ham sharqqa kelishgan. Lekin ular kelgan davr mutloqo boshqa dunyo edi. Umuman olganda Vilgelm Rubrukning elchiligini diplomatik nuqtai nazardan baholaydigan bo`lsak, uni yuborgan xristian dunyosi oldiga qo`ygan maqsadga erisha olmadi deb hisoblash mumkin. Chunki asl

⁵⁵ Христианский мир и великая монгольская империя. // Материалы францисканской миссии 1245 г. М., 2002 г.

muddao bo`lgan islom dunyosiga qarshi ittifoq tuzish niyati amalga oshmay qoldi. Lekin elchilik bahonasi bilan uyushtirilgan sayohati tarix uchun qimmatli bo`lgan ma`lumotlarni saqlab qolishi bilan birga Yevropa xalqlari uchun sharq xalqlari to`g`risidagi fikrlarini yanada boyitishga xizmat qildi.

Xulosa.

Malakaviy bitiruv ishimizga yakun yasar ekanmiz, avvalambor, shuni chuqur anglab olishimiz kerakki, tarixni o`rganish, davlatlarning rivojlanish bosqichlariga nazar tashlash, ular erishgan yutuq va kamchiliklardan xulosa chiqarishimiz darkor. Zero prezidentimiz aytib o`tganlaridek: “Biz ko`p yillar davomida ma`rifat va madaniyatga noto`g`ri munosabatda bo`ldik. Unga sarflanayotgan mablag`lar doim boshqa sohalardan kam bo`ldi. Natijada biz bu masalada orqada qolib ketdik. Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma`rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim”⁵⁶.

Kapetinglar sulolasi hukmronligi davrida Fransiya siyosiy jihatdan yagona davlatga aylanishi yuz beradi. Gugo Kapet franklar davlatining taxtiga o`tirgan vaqtida qirollik yerlariga Parij atrofidagi hududlar kirgan. Parij esa uning hokimiyatini tan olmas edi. Yirik yer egalari va feodallar qirol hokimiyatini tan olishmas va o`zlarining hududlarida o`z siyosatlarini olib borardilar. Mamlakatning atrofi kuchli grafliklar bilan o`rab olingan edi. Hozirgi Fransiya hududining

⁵⁶ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 79-b.

janubiy va g'arbiy qismi Ispaniya va Angliya nazorati ostida bo'lgan. XII asrning birinchi yarmidagina Lyudovik VI va Lyudovik VII hukmronlik qilgan davrda qirol hokimiyati bir qadar yuksala boshladi. Filipp II Avgust davrida qirollik hududi yangi yerlarni egallash evaziga kengaytiriladi. Lyudovik IX tomonidan sud islohotlari, pul islohotlari o'tkazilib, mamlakatda ichki tartibni tashkil qilinishga harakat qilindi. Filipp IV Chiroyli tomonidan davlat markazlashuvi ta'minlanib, dunyoviy hokimiyatning diniy hokimiyat ustidan hukmronligini o'rnatildi. Fransiya tarixida birinchi bor General Shtatlar chaqirilib, unda mamlakatning muhim masalalari muhokama qilinardi. Kapetinglar tashqi siyosatda ham Yevropa davlatlari ichida muhim o'rin egallay boshladi. Lyudovik VI, Lyudovik VII, Filipp II Avgust, Lyudovik IX, ayniqsa, Filipp IV Chiroyli tomonidan olib borilgan tashqi siyosat mamlakatlar va xalqlar taqdirini hal qilardi. Shu davrdagi muhim voqealardan biri Salib yurishlarida Fransiya qirollarining ishtiroki ham ahamiyatli edi.

X va XI asrlarda Fransiya G'arbiy Yevropaning eng tarqoq monarxiyalaridan biri edi. Qirol bu yerda knyaz feodallaridan birining, hattoki kuchli bo'lmagan feodallarning oddiygina o'rnini egallardi. Ko'pgina qo'shni yirik feodallar, har qaysisi o'z holicha qirol dan kuchliroq edi.

Agar Lyudovik VII dan keyin uning o'rniga taxtga salohiyatsiz qirol o'tirganda Fransiya aniq tanazzulga uchrar edi. Biroq Lyudovikning merosxo'ri etib taxtga uning o'g'li, o'rta asrlar Fransiya tarixidagi buyuk qirollardan biri sifatida nom qoldirgan Filipp II Avgust (1180-1223 yillar) o'tiradi. Filipp shaharlarning mustahkamlanishi hamda havfsizligi uchun ko'p g'amxo'rlik qiladi. Shahar devorlarini arqonlar bilan mustahkamlashga buyruq beradi. Qirol odatda o'z hisobidan yo'llarni tekislattirgan va ko'chalarga tosh yotqizdirgan.

Mamlakat janubidagi Tuluza grafligi yerlari bosib olinishi bilan mamlakatni markazlashtirish siyosatining yana bir davri yakunlandi. Lyudovik IX davrida qirol domenidagi feodallar urushlari taqiqlab qo'yildi. Fransiyaning boshqa viloyatlaridagi feodallar ham o'zaro urush e'lon qilganlaridan keyin qirq kunga qadar urush harakatlarini boshlashi ta'qiqlanadi. Shu vaqt ichida muholiflardan

kuchsizrog'I qirol sudiga murojaat qilishi mumkin edi. Lyudovik IX ning uzoq hukmronligi natijasida Fransiya deyarli tinch holatda yashagan.

Filipp IV Chiroyli (1285-1314 yillar) Fransiya tarixida sezilarli iz qoldirgan qirollardan hisoblanib, u Fransiyaning o'sha davrdagi zamonaviy davlatga aylantiradi. Filipp IV absolyut monarxiyaga asos soladi. Olib brogan muvaffaqiyatli urushlar natijasida Fransiya yerlarining to'rt dan uch qismi birlashtirildi. Natijada XIV asr boshlarida Bretan, Flandriya, Akvitananiya va qisman Burgundiyalargina o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan, xolos.

Aynan Filipp IV Chiroyli davrida hokimiyatning yuqori organlari- Parij parlamenti, Oliy sud va Moliya palatasi – yuqori amaldorlarning doimiy hukumat binosiga aylanadi.

Filipp IV Chiroyli Fransiya uchun ko'p ishlar amalga oshirgan. Biroq uning qo'l ostidagilari uni yoqtirishmagan. Papaga nisbatan bosim ko'plab xristianlar noroziligiga sabab bo'lgan, yirik feodallar esa huquqlari chegaralanganliklari uchun qirolni kechira olmas edi. Karl IV o'limidan so'ng taxtga Filipp VI Valua o'tiradi. Aynan shundan so'ng Fransiyaning Kapetinglarga yaqin qarindosh bo'lgan Valualar sulolasi boshqaradi.

Kapetinglar sulolasining bir qator qirollari hukmronligi vaqtida Fransiyada rivojlanish kuzatilib, quritilgan botqoqlar o'rnida qishloqlar soni ko'payadi; qishloq xo'jaligida samaradorlik oshadi; shaharlarda savdo-sotiqning o'sishi yangi savdogarlar tabaqasi mavqeining ortib borishiga olib keladi, aholi soni 13 mln kishiga etadi. Aynan Kapetinglar sulolasi hukmronligining dastlabki davridan boshlab bu hududlar Fransiya nomini oldi. Bu mamlakat Fransiya deb ataladi.

Kapetinglar sulolasi hukmronligi davri Fransiya madaniyatining gullab-yashnashiga to'g'ri keladi. Bu davrda Berul, Mariya Fransuzskaya, Kreten de Trua, Giyom de Lorris kabi adiblar, Pyer Abelyar, Foma Akvinskiy, Ioann Duns Skott singari Parij universiteti faylasuflari yashab, ijod etgan. Cherkov o'z qudratini o'rta asr soborlarini qurish orqali namoyon qilgan. Mamlakat janubi, Langedok shahri va qishloqlarida trubadurlar nazmi asosida kurtuaz madaniyati shakllandi.

Fransiya tarixida Kapetinglar sulolasi vakillari o'chmas iz qoldirib, Fransiya rivojlanishida katta o'rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
3. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqloqlva taraqqiyot yoli. T: O'zbekiston. 1992.
4. Бессмертный Ю.Л. Феодалная деревня и рынок в Западной Европе XII-XIII вв. – М., 1969 г.
5. Бубнов. Сборник писем Герберта как исторический источник.
6. Грацианский Н.П. Бургунская деревня в X-XII столетиях. М. – Л., 1935 г.
7. Грацианский Н.П. Крепостное крестьянство на поместьях аббатства св.Германа в начале IX ст. (по данным “Полиптика” аббата Ирминона). Харьков, 1913 г.
8. Грацианский Н.П. Парижские ремесленные цехи в XII– XIV столетиях. Казань, 1911 г.
9. Добиаш-Рождественская О.А. История письма в средние века. Изд. 2. – Л., 1936 г.
10. Заборов М.А. Из истории международных отношений в Западной Европе в конце XII–начале XIII вв. // Средние века. Вып. 23. 1963 г.

11. Заборов М.А. Крестоносцы на Востоке. М., 1980 г.
12. История дипломатии. Под редакцией В.А.Зорина. Москва. Госполитиздат. 1959 г.
13. История дипломатии. Под редак. В.П.Потемкина. Москва. 1941 г.
14. История Франции. Средние века от Гуг Капета до Жанны д Арк. – М., 2000 г.
15. История французской литературы. Гл. ред. В.М.Жирмунский. Т. 1-4. – М. -Л., 1946 – 1963.
16. История средних веков. Под редакцией Е.А.Косминского и С.Д.Сказкина. Т.1.М., 1952 г.
17. История средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. Т.1. М. 1977 г.
18. История средних веков. Под редак. С.П.Карпова. Т-1. М. 1998 г.
19. История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцовой, С.П.Карпова. Т.1-2.М. 1981г.
20. История средних веков. Под редакцией З.В.Удальцов и С.П.Карпова. Т.1.-М. 1990г.
21. Колесницкий Н.Ф. Феодалное государство. (VI – XV вв.) – М., 1967.
22. Конокотин А.В. Очерки по аграрной истории Северной Франции в IX–XIV веках. Иваново, 1958.
23. Корсунский А.Р. Образование раннефеодального государства в Западной Европе. – М., 2008 г.
24. Литтлвуд Йен. История Франции. – М., 2008 г.
25. Лозинский С.Г. История папства. М., 1986 г.
26. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков. – Л., 1955 г.
27. Манфред А.З.ИсторияФранции. – М, 1972 г.
28. Мусский И.А. “100 великих дипломатов”. Москва. 1991 г.
29. Неухин А.И. Возникновение зависимого крестьянства как класса раннефеодального общества в Западной Европе VI–VIIIвв. – М., 1956 г.
30. Primqulov Sh.D. O’rta asrlar tarixi. Ma’ruzalar matni. Samarqand, 2004.

31. Рыжов К. Все монархи мира. Западная Европа. – М, 2001 г.
32. Сироткин В.Г. История Франции. М, 1989 г.
33. Сидорова Н.А. Очерки по истории ранней городской культуры во Франции. – М., 1953 г.
34. Сказкин С.Д. История международных отношений и дипломатии в средние века. Москва. 1948 г.
35. Сказкин С.Д. Очерки по истории западноевропейского крестьянства в средние века. – М., 1968 г.
36. Шарль Пти-дютайи. Феодальная монархия во Франции и в Англии X-XIII веках. Москва. 1938г.
37. Xashimova M.M. O'rta asrlarda Fransiya. Toshkent. 2014.
38. Xashimova M.M., Gadayev H.U., Usarov S.R. O'rta asrlar diplomatiyasi va xalqaro munosabatlar tarixi. Toshkent. 2013.
39. Хрестоматия по истории средних веков. Под редак. Акад. С.Д.Сказкина. Т-1. М. 1961 г.
40. Хрестоматия по истории средних веков. Под редак. Н.П.Грацианского и С.Д.Сказкина. Том 1-3. изд.-2-е. М. 1949-1950 гг.
41. Хрестоматия по истории средних веков. М. 1974 г.
42. Христианский мир и “великая монгольская империя”// материалы францисканской миссии 1245 г. М., 2002 г.
43. Internet saytlari:
44. www.wikipedia.ru,
45. www.ziyonet.uz va boshqalar.

Ilovalar.



Gugo Kapet



Robert II



Genrix I



Filipp I



Lyudovik VI



Lyudovik VII



Filipp II Avgust

Lyudovik VIII



Lyudovik IX



Filipp III



Filipp IV Chiroyli



Lyudovik X






Ioann I

Filipp V



Gugo Kapet hukmronligining dastlabki yillarida Fransiya qirolligi.



Капетинглар davrida Fransiya qirolligi hududlarining o'zgarishi.